

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

NAJIYEVA SOJIDA NASIRDINOVNA

**KOLLEJ TALABALARINI KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA
TAYYORLASHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

**5A140801 – Pedagogika (ta’lim turlari bo‘yicha)
magistr akademik darajasini
olish uchun**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
Ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar:

Dots. Axrorov Yu. _____

kafedrasi mudiri _____

« _____ » _____ 201 ____y

M.O‘.

Samarqand – 2011

MUNDARIJA

KIRISH	3-8
I BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJI TALABALARINI KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.	
1.1. Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish – pedagogik muammo sifatida.	9-23
1.2. Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'rganilganlik darajasi.	24-30
1.3. Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ muloqotga tayyorlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati va imkoniyatlari.	31-36
II BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJI TALABALARINI KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA TAYYORLASHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI.	
2.1. Dars jarayonida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning yo'llari.	37-55
2.2. Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.	56-70
2.3. Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va samaradorligi.	71-77
Xulosalar	78-81
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	82-84
Ilovalar	85-88

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning zamonaviy bosqichi o'quvchi shaxsi shakllanishida erkinlikni ta'minlashning yangi qirralarini ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu borada milliy ta'lim modelimizning asosiy g'oyasi va mazmuni «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini o'z ichiga olgan 3-moddasida «O'rta mahsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi»¹ qayd etilganligi o'quvchi shaxsi, imkoniyat va ehtiyojlar alohida e'tibor qaratilganligining tasdig'idir.

Istiqlol tufayli o'z mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash - shu kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan isloxlarning taqdiri yoshlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongga to'la singdirishni taqozo etadi. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda shakllantirishdir.

XXI asrning birinchi choragida dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy axborot kommunikatsiya jarayonida chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan davr bo'lib, turli mafkuralar to'qnashuvi keskin tus olayotir. Bugungi kunda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaxolatga qarshi ma'rifat qudrati bilan kurashish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni Vatanga muxabbat, boy tariximizga, ajdodlarimiz yaratgan ulkan ma'naviy boylikka sadoqat ruxida tarbiyalash; el-yurt manfaatlari yo'lida yashab, mehnat qiladigan yurtsevar, millatparvar, fidoiy yoshlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bugun biz tarxiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar quyib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan xolda, mana shunday oliy janob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro jamiyat tan olgani-bunday imkoniyatlarnig barchasini aynan mustaqillik berganini xammamiz chuqur anglaymiz.

Ana shu xaqiqatni xalqimiz har tamonlama to'g'ri tushinib, tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlayotgani oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Yurtboshimiz I.A.Karimov o'zinnig asarlarida, ma'ruzalarida xalq bilan bo'lgan uchrashuvlarida ta'lim-tarbiya masalalarini yuqori pog'onaga ko'tarish, milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish va shu asosda barkamol avlodni shakillantirish lozimligiga to'xtalib shunday degan edi:

«Bizning xalqimiz dunyoda xech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, xech shubxasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirlikni, qat'iyat va ma'suliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muxim ishni o'z xoliga o'zi bo'larchilikka tashldab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan oxir oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin» ligini ta'kidlab o'tgan.

¹ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: // - T.: "Sharq", 1998. – 20 b.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri yoshlarda yangicha dunyo qarashni shakllantirish, ularni demokratik munosabatlarga tayyorlash zamonaviy ruxda milliy qadriyatlarimizga asoslangan ravishda tarbiyalashdir.

Ma'naviyat soxasidagi isloxotlar yoshlarda o'z xalqining madaniyati, vatani-ning o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu ziyoli bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir.

Xar qanday faoliyat odamlarning bir-biri bilan til topishishini, bir-biriga turli ma'lumotlar uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab xamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun xam har-bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati obro'si uning muloqatga kirishish qobiliyati bilan bevosita bog'liq. Zero yoshlarimizni kommunikativ ruxda tarbiyalash, shaxslararo muloqat jarayonining to'g'ri yo'nalishidan, odob-axloq me'yorlaridan chiqmagan xolda olib borilishi fakat ota-onalar emas, balki pedagoglar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, magtistrlik dissertasiyamiz mavzusini **«Kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish»** tar-zida tanladik.

Tadqiqotning maqsadi. Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni samarali usullariga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanish tartibi.

Tadqiqot predmeti. Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning mazmuni shakli va metodlari.

Tadqiqotning ilmiy farazi, agarda.

Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning pedagogik muammo sifatida o'rganilsa.

Pedagogika kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning o'rganilish darajasi aniqlansa. Kollej talabalarini

kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning xolati va imkoniyatlari taxlil etilsa.

Dars jarayonida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning yo'llari ishlab chiqilsa.

Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilsa.

Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ladi.

Tadqiqotning vazifalari:

Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishi muammo sifatida o'rganilishi;

Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning o'rganilish darajasini aniqlash;

Kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning xolati va imkoniyatlari taxlil etish;

Dars jarayonida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning yo'llari ishlab chiqiladi;

Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Tadqiqotning metodologik asosini o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiya soxasini islox qilishga oid g'oyalari «Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Markaziy Osiyo qomusiy olimlarning komil inson tarbiyasiga oid fikrlari, ilg'or pedagogik va didaktik nazariyalar tarbiya jarayonini takomillashtirish to'g'risidagi ilg'or pedagogik tajribalar va me'yoriy hujjatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot ishining amalga oshirilishida pedagogik-psixologik metodik adabiyotlar taxlilini kuzatish, suhbat so'rovnomalar o'tkazish,

pedagogik tajriba sinov va uni o'rganish xamda ommalashtirish, olingan natijalarni tahlil qilish uslublaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning muammo sifatida o'rganilganligi;
- Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning o'rganilganligi darajasining, aniqligi;
- Kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning holati va imkoniyatlari tahlil etildi;
- Dars jarayonida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning yo'llari ishlab chiqilganligi;
- Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilganligi;

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning pedagogik muammo ekanligi,
- Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning o'rganilganlik darajasi.
- Kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning holati va imkoniyatlari.

Tadqiqot bosqichlari:

Birinchi bosqich (2009 yil sentabrdan – 2009 yil dekabrgacha)da tadqiqot muammosiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari, shuningdek, pedagogik ta'lim mazmuni o'rganildi. Shu asosda tadqiqot ishining maqsadi, obyekti, predmeti, ilmiy farazi va vazifalari belgilandi. Maqbul metodlar aniqlandi. Dastlabki tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun materiallar tayyorlandi.

Ikkinchi bosqich (2010 yil yanvardan – 2010 yil dekabrgacha)da asosiy e'tibor tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga qaratildi. Tajriba sinov ishlarini o'tkazish uchun tajriba maydoni belgilab olindi. Tajriba maydoni sifatida Samarqand 1-son pedagogika kolleji tanlab olindi.

Uchinchi bosqich (2011 yil yanvar – may)da shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqot muammosi yuzasidan ishlab chiqilgan metodikaning samaradorlik darajasi aniqlandi, olingan natijalar matematik-statistika metodi yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida kollej talabalariglariga kommunikativ faoliyatining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar berildi.

Tadqiqotning tarkibi. Tadqiqot kirish, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 83 sahifani tashkil etadi.

I BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJI TALABALARINI KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

1.1. Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanish pedagogik muammo sifatida

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” tasodifan paydo bo’lgani yo’q – bu aynan shu xalqimizning qon – qoniga singigan ma’rifat qonuniyatining davomi” degan edi Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov.

Darhaqiqat, uzluksiz ta’lim tizimida bo’lajak mutaxassislarning pedagogik kommunikativ faoliyatini shakllantirish masalalari hozirgi kunimizning eng muhim masalalaridan biri sanaladi.

Bo’lajak kasb egalari davlat ta’lim standartlariga to’liq javob bera oladigan yetuk mutaxassis bo’lishi kerak, buning uchun zamonaviy ta’lim texnologiyasini chuqur egallagan, ma’naviy, madaniy jihatdan kamolga yetgan, ilmiy iqtidorli bo’lishni taqazo etmoqda. Pedagogik kommunikasiyaning rivojlanishda uning yangi-yangi modifikasiyalarini ishlab chiqishga intilishi zarur. O’qitishning samaradorligini oshirishda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining kommunikativ faoliyati muhim rol o’ynaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” nomli ma’ruzasida bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang’ich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo’yilishi kerakligini ta’kidlab o’tgan.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi – boladan yetuk insonni voyaga etkazadi. Shu jarayonda bolaning butun faoliyati, ta’limi, tarbiyasi bilim va muomalasi o’qituvchining diqqat markazida turadi. Albatta, bularning barchasi ta’lim tarbiyaning muloqati orqali amalga oshadi. O’qituvchining barcha yomon va yaxshi hislatlari uning o’qitadigan predmeti orqali o’quvchi ongiga ko’chadi. Muloqot madaniyatini yuqori darajada rivojlantirish va buning uchun turli vosita-

lar, usullar qo'llash va shu madaniyatni o'stirish o'qituvchining madaniyatiga bog'liq. Shuning uchun hozirgi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyatiga, uning tayyorgarligiga bog'laqdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi muvaffaqiyatli ish olib borishi uchun undan yuksak kommunikativ madaniyat va katta bardosh talab etiladi. O'qituvchi o'quvchi bilan muomalaga kirishar ekan, unig ichki dunyosiga kira olmaganligi sababli muavaffaqiyatsizlikka uchraydi. Pedagogik jarayonda muomalaning roli juda kattadir.

Muomala – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi shaxslararo muloqat rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muomala ushbu tarkiblardan tashkil topadi:

1. Kommunikativlar (bir tomonlama axborot uzatishdir).
2. Interaktivlar (ikki tomonlama o'zaro ta'sir).
3. Perseptivlar (o'zaro bir-birini idrok qilishlar).

Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyati qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ jarayon sifatida tavsiflanadi. Odamlar bir-biri bilan muloqatga kirishish jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanishi tilga va nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladi.

Muomalaning ikkinchi tomoni muloqatga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki hatti-harakati va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishdir. Muloqat faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar bilan tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi.

Har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi fazilatlari va hattoki nuqsonlari muloqat, kommunikasion jarayonning mahsulidir. Kommunikasiya, muloqotning asosiy funksiyasi suhbatdoshlarga axborot uzata bilish, ular o'rtasidagi bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir.

Kommunikasiya va muloqot shular bilan birga odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Kommunikasiya va muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil yetadi.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1. Verbal ta'sir-bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir.
2. Paralengvistik ta'sir-bu nutqning atrofidagi nutq bezovchi uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar.
3. Noverbal ta'sir-"so'zsiz" ta'sir etish. Bunda suhbatdoshlarning fazoda bir-biriga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari, qiliqlari, mimika, pantamimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hid)lar kiradi.

Ko'rinib turibdiki, o'qituvchining pedagogik faoliyatida muomalalarning roli juda katta va pedagogdan o'z kommunikativ faoliyatini mohirlik bilan boshqarishni talab etadi. Bu o'z navbatida pedagogda qator kommunikativ muomala ko'nikmalari mavjud bo'lishini taqazo etadi. Bular quyidagilar:

1. Kishilar bilan muomala qila olish ko'nikmalari.
2. To'g'ri tashkil yetilgan muomala tizimi orqali o'quvchilar bilan ijodiy hamkorlik faoliyatini uyushtirish.
3. Muomalani maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish ko'nikmasi.

Bulardan tashqari o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari ko'pgina boshqa tarkibiy qismlarni: psixologik aloqa o'rnatish ko'nikmasi, muomilada tashabbusni qo'lga olish, muomala jarayoniga moslasha bilish ko'nikmasi va boshqalarni xam o'z ichiga oladi. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarni egallash jarayoni nihoyatda serqirra va murakkab bo'lib, ularni muayyan kommunikativ faoliyatsiz egallash mumkin emas.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ faoliyatni shakllantirishning muayyan tizimi quyidagilar:

- hamkorlik ishtirokchilarining o'zaro axborot almashinuvi:

-turlicha kommunikativ vositalar (telefon, telegraf, kompyuter va h.) yordamida o'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni tashkil qilish;

- muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishni rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi.

Kommunikativ faoliyatni tarbiyalash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi hususiyatlarni shakllantiradi.

- o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilish;
- o'z-o'zini va boshqalar faoliyati hamda xulqini baholash;
- o'z-o'zini va o'zgalarni nazorat qilish;
- o'z-o'zini anglash va o'zgalarni tushinish;
- o'z-o'zini boshqarish;
- o'z-o'zini takomillashtirish;
- voqyelik mahsulini oldindan bashorat qilish shakllanadi.

Bugungi kunning dolzab masalalaridan biri - yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, ularni demokratik munosabatlarga tayyorlash, zamonaviy ruhda, milliy qadriyatlarimizga asoslangan ravishda tarbiyalashdir. Ma'naviyat sohasidagi islohotlar, yoshlarda o'z xalqining madaniyati, Vatanning o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu ziyoli, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir.

Har qanday faoliyat odamlarning bir-biri bilan til topishishini, bir-biriga turli ma'lumotlar uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirish qobiliyati bilan be'vosita bog'liq. Zero, yoshlarimizni kommunikativ ruhda tarbiyalash, shaxslararo muloqot jarayonining to'g'ri yo'nalishda, odob-axloq me'yorlaridan chiqmagan holda olib borilishi faqat ota-onalar emas, balki pedagoglar oldida turgan vazifalardan biridir. Xo'sh shaxslararo muloqot nima? Mazkur jarayon juda murakkabdir. B.F. Pariginning

yozishicha, muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quydagilar kiradi:

- A. Individlarning o'zaro ta'sir jarayoni.
- B. Individlarning o'rtasidagi axborot almashuv jarayoni.
- C. Bir shaxsning boshqa bir shaxsga munosabati jarayoni.
- D. Bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni.
- E. Bir-biriga hamdardlik bildirish imkoniyatlari.
- F. Shaxslarning bir-birini tushunish jarayoni.

Muloqotga kirishishning eng asosiy quroli bu nutqdir. Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina tilga bog'liq bo'lib, honaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko'zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo'lgan muddoning to'liq borib yetishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi. Bu talablar grammatik jihatdan nutqning to'g'ri bo'lishini, so'zlar va ko'zlangan ma'noni aniq aks yettirishni, chiroyli, yorqin va ta'sirchan bo'lishni taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi.

Muloqotning turlicha shakllari va bosqichlari mavjud bo'lib, dastlabki bosqich – odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T. Shibutani «Ijtimoiy psixologiya» kitobida «Agar odam o'z-o'zi bilan xam o'zini anglasa, demak, o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi», deb yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakteri va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib, doim jamiyatdan o'zini chetga tortib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi, deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot-muloqotning ikkinchi bosqichi. Uchinchi bosqich avlodlar o'rtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushingan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi

avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni ajdoddan avlodga uzatadilar.

Muloqot murakkab jarayondir. Uning tuzilishi quydagicha:

1. Muloqotning kommunikativ tomoni – muloqotga kirishuvchilar o'rtasidgi ma'lumot almashinuv jarayoni.

2. Muloqotning interaktiv tomoni – muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvoriga ta'siri.

3. Muloqotning persektiv tomoni – muloqotga kirishuvchilarning bir-birini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon.

Har qanday muloqot rasmiy yoki norasmiy bo'ladi. Rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvoridan kelib chiqadi. Masalan, rahbarning o'z xodimlari yoki professorning talaba bilan muloqoti. Norasmiy muloqot odamlarning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emosional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbatlari, tanaffusda talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi muloqoti. Odamlarning asl tabiatiga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtni oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin bunday muloqotga ham qobiliyat kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiqko'ngilliligi, suhbatlashish yo'llarin bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunish va boshqa shaxsiy sifatlari kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois hamma ham rahbar bo'la olmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab etiladi.

Muloqot mavzusi va yo'nalishiga ko'ra:

A.Ijtimoiy yo'naltirilgan (keng jamoatchilikka qaratilgan jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan).

B.Guruhdagi predmetga yo'naltirilgan (mehnat, ta'limi jarayonidagi yoki biror topshiriq bajarish jarayonidagi muloqot).

G.Pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni).

Endi muloqotning har bir tarkibiy qismi bilan alohida tanishib chiqamiz.

Muloqotning kommunikativ tomoni-shaxslar aro axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fiklar almashinuvi. Bu jarayoning asosiy vositasi-til (yozma-og'zaki, monologik-diologik nutq). Diologik nutqning mazmuni, xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-biriga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liqdir. O'qituvchi-o'quvchi, siyosiy rahbarlar, o'quvchilarning tanaffusdagi o'zaro suhbatlari bir-biridan farq qiladi.

Muloqotning interaktiv tamoni – kishilarning birgalikdagi faoliyatida bir-biriga amaliy jihatdan ta'sir etishlari. Hamkorlikda ishlash, bir-biriga yordam berish, bir-biriga o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarni namoyon qilishi mumkin. Odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab – jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalardir. Chunki o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib, ular tasavvurlar, xislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qiladi, o'zini boshqa birov bilan solishtiradi.

Ilm-fan taraqqiyotining uzoq davri shu bilan tavsiflanadiki, olimlar va tadqiqotchilar ko'proq nazariy masalalarni hal qilish, umumiy qonun-qodalarni sharxlash tushuntirish orqali jamiyat va insoniyat taraqqiyotini yoritishga o'rganishlari ko'p uchraydi. Bu qoida pedagogika va psixologiya fanlariga ham tegishli.

Bugun biz uchun ijtimoiy taraqqiyot va inson tafakkuri rivojlanishini tezlatuvchi, uning davr va kishilar xulqiga hamohang tarzda ketishini ta'minlab beruvchi tadbqiqiy ishlar va ilmiy izlanishlar zarur. Mamlakatimizda ro'y bera-yotgan tub ijtimoiy-siyosiy islohatlar shuni talab qilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlod olam sir-asrorlarini chuqur bilishi, qiziqishlari doirasida izlanishlar olib

borishga tayyor turishi, Vatanimiz taraqqiyotiga chuqur bilimi bilan o'z hissasini qo'shishi lozim.

Kommunikativ ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos tamonlari mavjud, jumladan, kishilarning o'zaro ta'sir etish usullari. Kishilarning o'zaro ta'sir etishdagi barcha vaziyatlar, asosan to'rtta o'zaro bog'liq munosabatlar orqali amalga oshiriladi: ishontirish, o'ziga rom qila olish, taqlid qilish, uqtirish.

Ishontirish-bu biror fikr yoki xulosani mantiqiy asoslashdir. Ishontirish suhbatdosh yoki guruh ongini o'zgartirib, ma'lum fikr (nuqtai nazarni) qo'llab-quvvatlaydigan va uning asosida faoliyat ko'rsatishni nazarda tutadi.

So'z bilan ishontirish eng qiyin tarbiyaviy vositalardir. Bunda tinglovchilar fikrini o'zgartira oladigan mantiq yoki suhbat ohangini tanlash juda muhimdir. Psixolog A. G. Kovalev ishontirishni safsata o'qish bilan aralashtirish yoki unga tenglashtirishga yo'l qo'ymaslik zarur deb ogohlantiradi. Ishontirishda vaziyat isbotlanadi, safsatabozlikda esa?!

Uyalmaysanmi?" "Har kim... bilishi zarur!" shakllarda rasmiy ravishda gapiriladi (Deklarativ holat). Safsatabozlikda, u kimning nomiga o'qilayotganligi ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham suhbatdoshlar bunday ta'sir ko'rsatishga, istehzoli, ko'pincha esa jirkanibroq qaraydilar.

Ishontirish-ishontiruvchi axborotning mazmunli bo'lishi, tinglovchi esa unga ongli munosabatda bo'lishini nazarda tutadi. Taqlid qilish-inson ruhiyatini o'ziga rom qilishning bir turidir. U asosan individning ma'lum bir hulq-atvor, harakat tarzi, qiliqlari takrorlashini anglatadi. Mashhur psixoterapevt V. L. Levi ichki va tashqi taqlid qilish mavjudligini aniqlagan. U ichki taqlid qilishda boshqa kishi sezgi mantig'i va xulqi intuitiv (ong bilan sezish) ravishda qamrab olinadi, deb hisoblaydi.

Ichki taqlid qilishda kishining tashqi qiyofasi ham hisobga olinadi, lekin ular tabiiydek tuyuladi. Axir, biz ixtiyoriy kishi bilan muloqotda bo'lganimizda, uni xayolan ifodalay olishimizdan ko'proq ma'lumotni o'zimizga olamiz, va

sezamiz (tekst Anikeyeva str. 7). Ichki va tashqi taqlid qilishni bilish yosh o'qituvchiga o'z ustida ishlashga yordam beradi.

Uqtirish-bu bir kishini ikkinchi kishiga yoki kishilar guruhiga ruhiy ta'sir etishi bo'lib, unda so'z ifoda va fikrlarni hyech qanday tanqid alomatisiz erkin tushuntiriladi. Fanda ta'kidlanganidek, uqtirishning mohiyati tinglovchining so'zlovchiga nisbatan to'la ishonch bildirishdir. Bu holda so'zlovchi tinglovchida aynan o'zidagi tasavvur, qiyofa va sezgilarni gavdalantiradi. Natijada uning oldida to'la ishonch qozonadi. Uqtirib ta'sir etishning asosiy shakli bir tomondan axborot manbai so'zlovchining obro'ga ega bo'lishi, ikkinchi tomondan esa tinglovchida ishonch hosil qilishi, hyech bo'lmaganda, ta'sir ko'rsatishga qarshilik bildirmasligiga erishishdir. Mana shunga amal qilgandagina uqtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin (tekst Anikeyeva str. 9).

Uqtirish, kishilarning muloqotda o'zaro ta'sir etish jarayoni sifatida ixtiyoriy va ixtiyorsiz to'g'ridan-to'g'ri ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Pedagogik jihatdan to'g'ri qo'llangan uqtirish juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lishi mumkin.

Kommunikativ o'zaro ta'sir etish samarasini oshiruvchi omillar.

Muloqot texnikasini bilish o'qituvchiga har bir vaziyatda o'z hatti-harakatlarini to'g'ri tashkil etishiga yordam beradi. O'zaro ta'sir uchun tanlangan noto'g'ri pedagogik hatti-harakat yoki noto'g'ri muloqot shaklini qo'llanilishi, ya'ni muloqotga uni amalga oshirish nuqtai nazardan tayyorlanmaganlik, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Kommunikativ o'zaro ta'sir samaradorligini oshiruvchi quyidagi vositalarga to'xtalib o'tamiz: muloqotga moslashish mushaklarning safarbarligi, tashabbuskorlik, rollar pozisiyasidan oqilona foydalanash, imo-ishora, har bir fikrni oldingisiga nisbatan balandroq tovush bilan boshlash, muloqotning ko'p qatlamliyligini e'tiborga olish.

Muloqotga moslashish-iborasi K. S. Stanislavskiy tomonidan kiritigan bo'lib, u hal etilayotgan masala va pedagogik vaziyat xususiyatiga moslashgan ruhiy mimika va pantamimika, nutq va harakat usullari sistemasini tanlab muloqot

tarkibini tashkil etishni anglatadi. Insoniy muloqatning har qanday akti obyektga moslashlar sistemasidan iborat bo'ladi. Professional kommunikatsiyada moslashish o'zaro ta'sir etish samarasini oshiradi.

O.Knebel moslashishni "kishilar muloqotining ichki va tashqi shakli" deb tasvirlaydi, bunda u bir-biriga qo'llaydigan ruhiy yurishlarni bir kishining ikkinchisiga ta'sir etish tanlanuvchanlik xususiyatiga ega ekanligini nazarda tutadi. Bu haqda A. S. Makarenko "Men beri kel" ni 15-20 ohangda aytishga o'rganganimda, va yuz ifodam, gavda va tovushimni 20 dan ortiq, holatga solishga muvaffaq bo'lganimdagina o'zimni haqiqiy mahoratimni seza boshladim. Shundagina kimdir meni oldimga kelib zarur narsani seza olmasligidan qo'rqmaydigan bo'ldim", deb yozgan edi. Kommunikativ moslashish pedagogik muloqatda muhim rol o'ynaydi, chunki pedagogik vaziyatlar odatda juda tez rivojlanadi va butun pedagogik jarayon harakatlanuvchi kommunikativ sistema sifatida gavdalanadi. Uni samarali boshqarish pedagog tomonidan muloqot uchun ketma-ket moslashuvlarni topa olinishiga bog'liqdir.

O'qituvchi o'zida har bir yangi pedagogik vaziyatga kommunikativ moslashuvlar sistemasini juda tez kirita olish malakalarini o'zida shakllantirish zarur. Ta'sir ko'rsatishning har bir metodi muloqatga moslashish sistemasi bilan birgalikda o'zgacha ohang, ahamiyat, kuch va yo'nalish kasb etadi.

Mushaklar safarbarligi har qanday so'zga chiqishning zaruriy shaklidir. U diqqatning bir maqsadga qaratilgani va demak, nigoh yo'nalishi, ko'z qarashlari, nafas olish va umuman mushaklarning umumiy safarbarligi va aynan yelka, umurtqa sistemasining ixchamligidir. Bu gavdaning ishchan holati bo'lib uni sodir bo'lgan va tez orada sodir bo'ladigan to'siqlarni yengishga tayyor ekanligidir.

Mushaklar safarbarligi har qanday pedagogik ta'sir ko'rsatishning dastlabki qismida ham zarur, u pedagogning muloqotda faol va tashabbuskor bo'lishiga undaydi. Nutqli ta'sir ko'rsatishni bolalarda aks etadigan umumiy kommunikativ holat bilan mustahkamlaydi. Mushaklar safarbarligini nutqli ta'sir etishidan ilgariroq vujudga keltirish ma'quldir. Shundagina muloqotga bolalarda ham ichki

safarbarlik yaratiladi, va uning odatdagi asoslari yanada mustahkamlanadi. Bu o'rinda notiqlar uchun quyidagi tavsiyanomani O'qituvchilar uchun ham tegishli ekanligini eslash o'rinlidir: minbar tomon borayotgan notiq hozir hammaning diqqati unga qaratilishini sezadi. Shuning uchun ham, u tashqi ko'rinishi bilan, o'zining harakatchanligi, tinglovchilarga muhimroq axborotni aytishga tayyorligi va bunga hohishi borligini ham namoyish qilishga intiladi. Notiqning yurishida xijolat tortishi, jur'atsizligi yoki befarqligining sezilishi juda yomondir". (Kan-Kalik str. 125). Bu muloqatga tayyorgarlik ko'rishining umumiy "tashqi" manzari bo'lib, u tinglovchilarga moyillikni vujudga keltirishning eng zarur so'zlovchisidir.

Pedagogik sistemada-tashabbuskorlik pedagogning eng muhim kommunikativ vazifasi sifatida namoyon bo'ladi. Tabiiyki, tashabbus ko'rsatish shakllari turlicha bo'ladi. Ular hozirgi faoliyatdagi hissiyotlar va bilim jarayonida yaratiladi va pedagogik vaziyatlarni o'zgarib turishi natijasida ular ham o'zgarib boradi.

Pedagog tashabbuskorligi ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin:

a) Pedagog ochiqdan-ochiq faoliyat (muloqat) tashabbuskori sifatida namoyon bo'ladi;

b) U o'z faoliyatini yashirin tashabbuskori sifatida ko'rsatadi (o'quvchilarda biror faoliyatga zarurat tug'dirish. Bunda o'quvchilar o'zlarini tashabbuskor deb hisoblaydilar).

Muloqotda bir tomondan tashabbusni qo'ldan bermaslik ikkinchi tomondan esa muloqotdagi moslashishlar sistemasi orqali bu tashabbuskorlikni boshqarish, unga zarur kommunikativ vaziyat shaklini berish zarur. Xuddi shu ma'noda avtoritar tashabbus bolalar tashabbusini yaratuvchi demokratik yashirin avtoritarlik deb fikr yuritish mumkin.

Pedagogik munosabatlarning boshlang'ich davrida kommunikativ tashabbuskorlik juda muhimdir. Pedagog sinfga nisbatan o'ziga xos kommunikativ hujumni amalga oshirgandagina, kommunikativ ustunlikda erishishi mumkin.

Rollar usulidandan unumli foydalanash ham ta'sir ko'rsatishni mustahkamlovchi vositalardan biridir (baland kelish, past kelish, ro'paradan kelish, ishtirok etmaslik).

Rollar usuli pedagogik muloqotni rang-barangligini yanada oshiradi, tarbiyachining so'z bilan ta'sirini ko'p marta mustahkamlaydi. Pedagogik muloqotda qo'llanayotgan rollar pozitsiyasi quyidagicha talablarga javob berish zarur:

- a) hal etilayotgan kommunikativ vazifaga mos bo'lishi;
- b) pedagog va o'quvchi o'rtasida shakllangan yoki tarkib topayotgan o'zaro munosabatlarga mos bo'lishi;
- v) o'qituvchi ning individual-pedagogik ijodkorligiga mos bo'lishi;
- g) tarbiyalanuvchilarni individual xususiyatlariga mos bo'lishi.

Imo-ishora pedagogik muloqotning faollashtiruvchi, uning ta'sirchanligini oshiruvchi vosita bo'lib, u pedagog kommunikativ madaniyatining muhim qismi bo'lib hisoblanadi. Imo-ishora ta'sir ko'rsatishni yanada kuchaytiradi, tinglovchilarda ma'lum hissiy kayfiyat yaratadi, bayon etilayotgan axborotga nisbatan o'qituvchining shaxsiy munosabatini bildiradi. Imo-ishora ahamiyatli va ma'nosiz kabi turlarga bo'linadi. Agar birinchisi pedagogning nutqli kommunikatsiyasi samaradorlini oshirsa, ikkinchisi esa o'quvchilarni muloqot jarayonining muhim vazifalaridan chalg'itadi.

Notiq o'z sezgilarini payqashi boshqalarni qiziqtirishning kuchli vositasi ekanligi unutmazligi zarur. Lekin, ko'p hollarda notiq o'z sezgilarini qanday yashirib turishiga qarab tinglovchilarni juda tez jonlantirib yuborish mumkin. Shuning uchun ham pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda muloqotning boshqa vositalarining ahamiyatini ham ko'rsatib o'tish zarur. Har bir fikrni oldingisidan balandroq tovush bilan boshlashi ham pedagogik muloqot ta'sir kuchini oshiruvchi vositadir. Bu usul muloqotda tashabbusni qo'ldan bermaslikni, o'quvchilar diqqatini muhim narsaga qaratishga yordam beradi va ayniqsa, yangi mavzuni tushuntirishda nutqning ta'sir etish bo'yoqlarini rang-barang qiladi. Bu esa, darsning pedagogik samarasini yanada oshiradi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha,

materialni zerikarli (bir ohangda) bayon etish, o'zlashtirishni 35-55 foizga kamaytirgan.

Pedagogik muloqotning ko'p qatlamligini e'tiborga olish ham uning ta'sir ko'rsatish kuchini oshiruvchi vositadir. O'qituvchi bir vaqtning o'zida butun sinf bilan va har bir o'quvchi bilan, o'quvchi orqali esa butun sinf bilan muloqotda bo'ladi. Bir o'quvchi bilan muloqotda bo'lgan holda (darsda nimanidir tushuntirish, ishontirish) o'qituvchi o'z e'tiborini to'la ana shu o'quvchiga qaratib qo'yishi mumkin emas. Darsda alohida o'quvchi bilan muloqotni shunday tashkil etish kerakki, bundan boshqa barcha o'quvchilar ham nazardan chetda qolmasligi zarur. Faqat shundagina muloqot, pedagogik muloqot jarayoni uzviy va sistemaviy bo'ladi.

Pedagogik muloqot-o'zaro ta'sir ko'rsatishdir.

Pedagogik muloqat ijtimoiy psixologik o'zaro ta'sir ko'rsatishning jamoa sistemasini ifodalaydi. Shuning uchun muloqatni quyidagi yo'nalishlarda qatlamlarga ajratish mumkin:

Pedagogning alohida o'quvchi bilan muloqoti;

Pedagogning alohida o'quvchi orqali butun sinf bilan muloqati

Butun sinf bilan bo'lgan muloqat;

Pedagogni butun sinf orqali alohida o'quvchi bilan muloqati.

Darsda o'quvchilar bilan doimiy muloqat qilayotganingizni tekshirib ko'ring. Buning uchun quyidagi sxemadan foydalanang:

darsda bir o'quvchi yoki guruh bilan muloqatda bo'lib, beixtiyor boshqalarni nazardan chiqarib qo'yadigan paytlar bo'ladimi?

Har doim dars davomida hamma o'quvchilarni "pedagogik nazorat" da ushlab tura olishingizni tahlil qiling;

Qaysi o'quvchi bilan qoniqarli muloqot qila olmaganingiz haqida darsdan so'ng mulohaza yuriting;

Darsda doim har bir o'quvchi uchun mos bo'lgan individual muloqot usullarini tanlab olishingizni tahlil qiling;

Alohida o'quvchi bilan muloqotda bo'la turib butun sinf bilan muloqotni amalga oshirish qobiliyatingizni tekshiring;

Bironta, guruh bilan muloqotda bo'lgan holda shaxslarni o'zaro ta'sir ko'rsatish individual muloqotni ham tashkil eta olishingizni tekshiring;

Darsda o'quvchilarning o'zaro muloqoti qanchalik maqsadga muvofiq holda tashkil eta olishingizni o'ta tahlil qilish;

Darsda o'quvchilar bilan ruhiy nigoh o'rnatish, darajangizni tanqidiy baholang, bu jarayondagi kamchiliklaringizni yaqqol ko'rsating.

Bolalar bilan o'z muloqotingizni takomillashtirmoqchi bo'lsangiz quyidagi tavsiyalarga amal qiling:

1. Sinfga kirish, tetik o'ziga ishonch, harakatchan;
2. Muloqat boshlanishida o'zini tetik, ishchan, o'ziga ishonchli his etish;
3. Kommunikativ kayfiyatda bo'lish, muloqatga tayyorgarlikni yaqqol namoyon qiling (ifodalang);
4. Harakatchanlik bilan kommunikativ faollik bilan muloqotga hissiy tayyorgarlikni ko'rsating va bu holatni o'quvchilarda ham vujudga keltiring;
5. Darsda zarur hissiy kayfiyatni yarating;
6. Dars davomida o'z sezgilari va bolalar bilan bo'ladigan muloqatni birgalikda boshqarish (turg'un hissiy holat, o'z sezgilarini boshqarish qobiliyati, kayfiyatni buzilmasligi);
7. Muloqat samaradorligini ta'minlash;
8. Muloqotni boshqarish: ildamlilik, ixchamlilik, shaxsiy muloqot uslubini sezish, muloqat va ta'sir ko'rsatish birligiga erishing;
9. Nutq, texnik, qiyofali, hissiy to'laqlonlik, yuqori madaniyatli;
10. Mimika, harakatchan, aniq pedagogik maqsadga muvofiqligi;
11. Pantamimika: harakatlarning ifodaliligi, qiyofaning aniqligi, harakatlarning hissiyotga boyligi;
12. Muloqatning yakunli, umumiy tavsifi.

Yuqoridagi barcha "psixologik" usullar asosiy sharti pedagoglik kasbiga qiziqish, bu kasbning mohiyatini tushunish, bolalarga muhabbat bo'lgandagina, qisqacha aytganda pedagog shaxsi professional-pedagogik yo'nalishiga ega bo'lgandagina yaxshi samara beradi.

1.2. Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanishning o'rganilganlik darajasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach xalq hayotining turli-tuman sohalarida, jumladan, ta'lim-tarbiya jabhasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida shunday deydi: «Biz kadrlar tanlash joy-joyiga qo'yish va yangilash tizmini takomillashtirishimiz zarur. Buning uchun, birinchi navbatda iste'dodli, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli yoshlarga so'zda emas, amalda keng yo'l ochib berishimiz shart». Bu fikrdan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, yoshlarimizni kasb-hunarga o'rgatishimiz, yo'naltirishimiz davlatimiz oldida turgan bosh vazifalardan biridir. Shu bilan bir qatorda, yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi yuksak malakali, oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni kasbiy pedagogik kommunikativ faoliyatga tayyorlash bugungi kunimiz talabidir. Ta'lim jarayonini axborot bilan taminlash tizimini shakillantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lashdan iborat. Buning natijasida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini katta hajmdagi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib boradi.

Respublikamiz ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar bevosita Prezidentimiz I. A. Karimov nomi bilan bog'liq. Italiyaning Boloniya Universiteti Prokrektori, professor F. Fanelli so'zlari bilan aytganda: «Prezident I. A. Karimov faqat mavjud yutuqlarni avaylab, saqlabgina qolmay, ayni paytda ta'limni yaxshilash yo'lidagi faoliyatni izchil davom ettiradi... Ayniqsa to'qqizinchi sinfdan keyingi uch yillik majburiy ta'lim alohida e'tiborni tortadi. Milliy dasturida o'z o'rini topgan o'rta maxsus, kasb –xunar o'quv yurtlarining o'ziga xos yangi namunasi hayotga kirayotgan o'smirlar kamida ikki – uch zamonaviy kasbni

puxta egallab chiqishga imkoniyat yaratadi, bu ta'lim turi bizni qiziqtirib qo'ydi va yangi o'y mulohazalar uyg'otdi. Chunki G'arbda katta bunday o'quv yurtlari hali yo'q va O'zbekistonning bu tajribasi turli mamlakatlardagi ta'lim tizimiga jiddiy o'zgartirishlar kiritishga turtki bo'ldi"².

O'sib kelayotgan avlododa zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish sifatlarini shakllantirish muammosini turli jihatlarini chet olimlari T. Bekker, A.Bork, S.Veir, R.Nortin, S.Peypert, J.Xartli; hamdo'stlik mamlakatlari olimlari N.V.Apatova, N.A.Geyin, V.M.Glushkov, V.V.Grishkin, A.M.Dovgyallo, A.P.Yershev, A.A.Kuznisov, Ye.I.Mashbis, V.M.Monaxov, A.Ya.Savelyev; yurtimiz olimlari A.A.Abdugodirov, M.Oripov, U.Yuldashev, N.I.Tayloqov, A. Hayitovlar tamonidan o'rganib chiqilgan.

O'zbekistonda o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi rivojlanishinig nazariy, nazariy-metodik va ijtimoiy-pedagogik asoslari R.Dujrayev, U.Inoyatov, N.Muslimov, X.F.Rashidov, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari kasbiy mahoratini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari S.P.Rajabov, uzliksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning pedagogik asoslari N.I.Taylakov, umumiy o'rta ta'limda informatika va hisoblash texnikasi asoslaridan o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi va amaliyoti A.R.Hayitov, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar tadbiq etilishining nazariy amaliy asoslari I.I.Zokirov, maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratish muammolari Q.T.Olimov, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilm va malakalarni shakllantirishning metodik asoslari Q.M.Abdullayeva, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari N.M.Urinova kabi olimlar tamonidan o'rganilgan.

Kasb-hunar kolleji talabalarini kommunikativ faoliyatini shakllantirishda turli yo'nalishlarda N. Shodiyev, M. Ashurov, N. Qo'chqorov, M. Xolmuxamedov, Yu. Axrorov, A. Ibrohimov, Q. Tursunov, F. Shodiyev, A. ²

2. Qurbonov Sh. va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy daturini" ni amalga oshirish borasidagi publistik mulohazalar). – T.: "Sharq" nashriyot - matbaa konserni, 1998. – B. 147.

Abduaxadov, M. Nuritdinova, Z. Xojimatova kabilar ilmiy maqolalar nashr etganlar.

Bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ faoliyatini shakillantirishda ta'lim jarayonida informasion texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, kollej talabalarining infarmatsion texnologiyalar orqali oladigan axborotlar hajmi ko'p bo'lishi bilan birga, ular turli xilligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun kollej talabalarining o'rganilayotgan fan bo'yicha tasavvurlari, bilim va ko'nikmalari kengayadi. Natijada talabalarning egallagan bilim va malakalari ularning kommunikativ faoliyatining shakillanishiga asos bo'ladi.

Ta'lim jarayonida informatsion texnologiyalardan foydalanish natijasida ba'zi bir muammolar paydo bo'ladi.

Ta'lim jarayonida informasion-texnologiyalardan foydalanishdan kutilgan va hosil bo'lgan natija orasidagi qarama-qarshilik asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish uchun informasion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq qiladigan va o'qitishning zamonaviy usullariga mo'ljallangan kompyuter tizimlarini yaratish kerak bo'ladi. Turli o'quv dasturlari, ya'ni namoyish qilish, nazorat qilish, modellashtiruvchi dasturlar kompyuter tizimining asosini tashkil qiladi.

Namoyish qilish dasturi asosan ma'ruza darslarida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalarga nazariy bilimlar yetkazish jarayonida qo'llanilishi mumkin. Unda o'tilayotgan ma'ruzaning ko'rgazmaliligi oshishi bilan birga kollej talabalarning o'rganilayotgan soha bo'yicha tasavvurlari kengayadi. Ularning shu mavzu bo'yicha bilim va malakalarni egallash jarayoni yengillashadi.

Nazorat qilish dasturlari asosan talabalarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish yoki baholash maqsadida qo'llaniladi. Bu dastur test ko'rinishida, topishmoq ko'rinishida yoki krasvord ko'rinishida berilishi mumkin. Eng ko'p qo'llaniladigan dasturlar-bu test dasturi bo'lib, ular talabalarning bilimini obektiv baholashga imkon berish bilan birga, ularning kompyuter bilan bo'ladigan kommunikativ faoliyatini shakillantiradi.

Imitasion modellashtiruvchi dasturlar esa o'rganilayotgan jarayonlarning matematik modellarini yaratish va ularni takomillashtirish maqsadida qo'llaniladi. Bu dasturlardan ko'proq laboratoriya mashg'ulotlarini va tadqiqot ishlarida foydalanadi. Imitasion modellashtiruvchi dastur talabalarning mustaqil fikrlash jarayonini kengaytirish bilan birga, ularning ilmga, fanga va ilmiy tadqiqot ishlariga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Shu bilan birga, bu dasturlar informasion texnologiyadan foydalanishning dasturiy-uslubiy tizimini hosil qiladi. Talabalar bu dasturlar yordamida o'rganilayotgan jarayonlarini ekran orqali kuzatishi va kerakli o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Shu bilan birga, bu dasturlar zarur bo'lgan o'quv materiyallarini berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, albatta, talabalarning kommunikativ faoliyani shakillantirishda muhim o'rinlardan birini egallaydi. Bundan tashqari, o'yin dasturlari ham mavjud bo'lib ular o'z navbatida kam miqdordagi o'quv materiyallariga yoki shunga doir bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

O'yin dasturlari asosan talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, kerakli holatlarda lozim bo'lgan xulosaga yoki yechimga kelish imkoniyatini yaratadi. O'quv dasturlari yaratishda qo'llaniladigan ashyoviy vositalar mehnat sarfini anchaga kamaytiradi. Ma'ruzada ta'lim jarayonida infarmatsion texnologiyalardan foydalanishning dasturiy-uslubiy tizimni yaratishning boshqa muammolariga ham to'xtalib ularni hal qilish usullarini ko'rsatishga harakat qilingan.

Shu bilan birga, infarmatsion texnologiya dasturiy-uslubiy tizimining ta'lim jarayonidagi o'rni, roli va samaradorligi to'g'risida fikr yuritilgan. Bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ faoliyatini shakillantirishda infarmatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanishning zarurligi va lozimligi ta'kidlangan.

Biz jahonning ilg'or pedagogik tajribasi namunalaridan unumli foydalanib, kollej talabalarida kommunikativ faoliyatini shakillantirib ularni jahon talabiga javob beradigan kadrlar qilib yetishtirish vazifamiz ekanligini har-birimiz anglashimiz darkor.

O'quvchilarga bilim berishning bir bosqichi kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar hisoblanadi. Ana shu kasb-hunar kollejlarida asosan, o'rta maktab dasturlarida sayoz o'tilgan tomonlari hisobga olingan holda, o'shalarni to'ldirib o'tish, chuquriroq bilim berishdan iboratdir.

Fani o'qitishda asosan quydagilarga e'tibor berilishi va kommunikativ faoliyatini shakillantirishga kuchli e'tibor bilan qarashimiz kerakligining metodik xamda metodologik tamonlarini xisobga olishimiz zarurligi tavsiya qilinadi:

- talabalarning extiyoji va qiziqishiga qarab, o'qituvchi o'zi mavzularini tanlashi lozim deb topilgan.

- talabalarning nutqiy savodxonlik darajasini oshirish, so'zni to'g'ri tanlash va qo'llashi fikrning ravshanligini ta'minlovchi lisoniy tamonlarga e'tiborni kuchaytirish.

Yoshlarni davr talabi nuqtaiy nazaridan o'qitish ishlarini jadal sur'atlar bilan amalga oshirish borasida Respublikamizda misli ko'rilmagan darajada qayta ko'rish ishlari, jixozlari, kompter xonalari, lingafon xonalari, ximiya-fizika fanlari uchun mo'ljallangan laboratoriya xonalari kommunikativ ishlarning yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Komil shaxsni tarbiyalash maskanlari-lisey, kollej rahbar xodimlarining butun faoliyati kommunikasiya, muloqot bilan bog'liqdir. Bu xodimlar ishining samaradorligi nafaqat ularning yo'nalganligi, maqsadliligi, shaxsiy individual sifatlari, kasbiy tayyorgarligi bilan, balki shu bilan birga, ularning qanchalik muloqot qoidalarini bilishlari, kommunikativ bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari bilan bog'liqdir.

Litsey va kollej direktorlari, ularning o'rinbosarlari, sinf, guruh raxbarlari va o'qituvchi-tarbiyachilar doimiy kommunikativ muloqatda bo'ladilar. Muloqot yordamida axborot maqsadli uzatiladi, qabul qiluvchi diqqatini, qiziqishini o'ziga tortadi, qabul qilinadi va shu axborot asosida faoliyat olib boriladi. O'quv maskanlaridagi boshqaruv faoliyati muloqot yordamida olib boriladi.

Psixolog V. M. Karimovanning fikricha, insonlar orasidagi o'zaro ta'sir mulolqot yordamida vujudga keladi. Muloqot shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biridir.

Xudi shunday fikrni D.Karnegi, A.Blok, Pol Bregler xam o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan. Lisey va kollej raxbarlari kommunikativ faoliyatlari-ning optimallasuvi uchun ular boshqa fanlar bilan birga «Muloqat psixologiyasi» fanini xam chuqur bilishlari maqsadga muvofiqdir. Bu bilimlar raxbarlarni yangi sharoitda, yangi tizimda ish olib borishi uchun puxta zamin yaratadi. «Inson-inson» - «Inson-mashina» tizimini boshqarish insonlar guruxidagi munosabatlarni to'g'ri va davomli nazorat etish, faoliyatni olib borish har bir rahbardan kommunikativ madaniyatni talab etadi.

«Yaponiyada tayyorlangan» nomli kitobning muallifi «Soni» firmasining asoschisi Akioning yozishicha, har qanday maqsadli faoliyatni boshqarish uchun lider, rahbar insonga uning psixofiziologik xususiyatlariga tayanishi lozim. Xodimlar orasidagi munosabatlarni yaxshilash, har bir ishchi haqidagi to'g'ri, har tamonlama axborotga ega bo'lish, uni hurmatlash, yashash sharoitini yaxshilashga ko'maklashish har bir raxbarning vazifasidir. Raxbar inson psixologiyasini yaxshi bilishi shart. Muomala, avvalo ma'naviy yaqinlashuv. Muomala san'atini bilmagan raxbar hozirgi paytda jamoani yaxshi boshqara olmaydi. Muomala –bu ijodiy hamkorlik, birga fikrlash, hamjihatlik, har kim o'z fikrini ayta oladigan va aytishi zarur bo'lgan erkinlik. Muomala raxbarning ma'naviy va ijodiy imkoniyatini jamoaga munosabatida namoyon bo'ladi. Muomala raxbar va xodimlar orasidagi munosabatning yangi uslublari bilan yengillashtiradi va uning asosida mehribonlik, o'zaro yaqinlik va hurmat yotadi.

Ana shunday kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlardan eng muhimlaridan biri bu – uzluksiz ta'lim tizimida raxbarlik qilayotgan xodimlarning muomala madaniyati, kommunikativ faoliyatini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish ehtiyojidir. Shubhasiz, raxbar xodimning eng yorqin insoniy va kasbiy fazilatlaridan biri – uning muomala qila bilish, notiqlik qobiliyatidir. Chunki u o'z

faoliyatida o'zgalar bilan so'z orqali psixikaning eng muhim faktori vositasida aloqa qiladi, muomalada bo'ladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov bu muommoning g'oyatda dolzarbligi haqida ta'kidlab o'tgani ham bejiz emas: "O'z fikrini mutloqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassislarni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun, tushunish ham, oqlash ham qiyin".³

³ Qurbonov Sh. va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy daturi" ni amalgam oshirish borasidagi publistik mulohazalar). – T.: "Sharq" nashriyot - matbaa konserni, 1998. – B. 15.

1.3. Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanish holati va imkoniyatlari

Yangilanayotgan boshlang'ich ta'lim tizimida yakuniy natija bevosita pedagogik jarayonini amalga oshiradigan o'qituvchi mehnatining qanday tashkil etilganligiga borib taqalaveradi.

Bunday savolga javob berish maqsadida biz ko'pgina o'qituvchilarning ish tajribasi va maqolalarini o'rganib quyidagi xulosaga keldik. Zamonaviy boshlang'ich maktabda xamda kollej, liseylarda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish omillaridan biri – bu jarayonga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashdir.

Shuni ta'kidlash zarurki, qator yillar davomida pedagog-uslubchilar dolzarb didaktik masalalarni aniq ifodalashga va unga mos keladigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga kam e'tibor bergan edilar. Biroq keyingi paytlarda asosan, 1997 yildan beri ular yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etishga mas'ul bo'lib qoldilar.

Darvoqye, pedagogik texnologiyaga «yangi» so'zining qo'shib ishlatilish nazariyasi olimlarimiz va o'qituvchilarimizni bir qadar o'ylantirib qo'ydi, endilikda ta'lim-tarbiya jarayoni loyihalashga eskicha yondoshish mumkin emasligini anglab etmoqdalar.

Shunday ekan pedagogik texnologiyani yangilash – biz uchun bunga qadar eng muhim bo'lgan vazifadir.

Ta'lim-tarbiyaning maqsadi yangilangandan keyin, unga mos holda mazmunning yangilanishi tabiiydir. Ta'lim mazmuni o'quv dasturi, qo'llanma va darsliklarda o'z ifodasini topadi.

Pedagogik texnologiya tuzilma, didaktik maqsad, ya'ni vazifalarni belgilab olishdan boshlanib, ta'lim jarayonini bir butun yaxlitlikka yo'naltirishni nazarda tutadi.

Ta'lim tizimi, shaxsni shakillantirish uchun, davlat standartlari talablari asosida hamda rivojlanayotgan davlatlar darajasida kadrlar yetishtirish, avvalo, o'qituvchi-murabbiylarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonda, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mas'uliyati katta, u umumiy ta'lim tizimining asosini, poydevorini yaratuvchi shaxsidir.

An'anaviy ta'lim jarayoni ko'p yillar davomida ikki tomonlama jarayon bo'lib hisoblanar edi. Unda o'qituvchi o'quv-tarbiya jarayonining sub'kti, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi shu jarayonnig predmeti sifatida qaraladi. Bunda bilim, ko'nikma, malakalar yetarlicha beriladi, lekin shaxs rivojlanishi ko'zda tutilmaydi.

Muloqot - pedagog faoliyatini eng muhim professional qurolidir. Pedagogik muloqot - qulay psixologik muhit yaratish maqsadida o'qituvchi ning o'quvchi bilan dars va undan tashqaridagi haqiqiy muloqotidir.

Noto'g'ri pedagogik muloqot o'quvchida qo'rquv, ishonchsizlik tug'diradi, diqqati, xotirasi va ish qobiliyatini susaytiradi, nutq me'yorini buzadi. Natijada, o'quvchilarda steriotip fikrlar vujudga keladi. Ularni o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqishlar susayadi. Oqibat natijada, o'quvchilarda o'qituvchiga, unin faniga nisbatan muayyan salbiy munosabatlar uzoq vaqt shakllanib qoladi.

Pedagogik muloqot-ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalar bilan harakterlanadi: shaxsni o'rganish (bilish), axborot almashish, faoliyatni tashkil etish.

Muloqotni axborot almashish funksiyasi-ma'naviy boylik va yangiliklar bilan o'rtoqlashish jarayonini ta'minlash bilan birga o'quv-tarbiyaviy jarayonni rivojlantirish uchun ijobiy ishtiyoqlar. Hamkorlikda fikrlash uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Rollar almashinishi yordamida muloqot o'rnatish esa, ularda u yoki bu ijtimoiy shakllanib qolgan hatti-harakatni dasturlaydi (o'qituvchi -o'quvchi).

Ijtimoiy rollar almashinuvi shaxsni har tomonlama namoyon bo'lishini ta'minlaydi, niqobni olib tashlab boshqa kishi roliga kirish va shu bilan insonni inson orqali idrok qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadai. O'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar, darsning ayrim elementlarini bajarishga o'quvchilarni taklif qiladilar, har bir o'quvchini o'qituvchi rolini bajarishga imkon beradilar. O'z shaxsi qimmatini namoyon qilish ham muloqot funksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchilar tomonidan o'z shaxsi (men) ni, qadr - qimmatini, shaxsini munosib baholash va kelajagini tasavvur eta olish uchun intilishlarini ta'minlash o'qituvchi ning asosiy vazifasidir.

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri-hamdard bo'lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma'qullash qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda o'quvchini, uning istaklarini tushunish va bo'lar asosida o'quvchiga ta'sir etish zarurligi anglash o'qituvchi uchun juda muhimdir.

Muloqot funksiyalarini bilish O'qituvchilar uchun dars va undan tashqarida o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etishga yordam beradi.

Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanashga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki o'quvchilarning o'z shaxsini namoyon qilishlarini va o'z shaxsiy qobiliyatini ham ko'rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirishi zarur.

Bunda ayniqsa, o'qituvchi yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga alohida e'tibor berish, har bir o'quvchini qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yish lozim. Muloqot bo'yichaa yirik mutaxassis olim Kan-Kalik fikricha, professional pedagogik muloqot tarkibi quyidagilarlardan iborat:

- sinf-guruh bilan bo'ladigan muloqotni pedagog tomonidan modellash (loyihalash);
- o'zaro ta'sir ettirishning dastlabki onlarida bevosita faol muloqot olib borish (kommunikativ hujum);
- pedagogik jarayon davomida muloqotni boshqarish;
- amalga oshirilganlarni tahlil qilish va uni kelgusi faoliyat uchun model-lash.

Muloqotning har bir elementlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur.

Modellash bosqichi-sinf (guruh) o'quvchilarning o'ziga xos quyidagi xususiyatlarini, ularni bilish qobiliyatlari xarakteri, qiyinchiliklar ehtimolligi, ish sur'atini bilishni talab etadi.

Darsga tayyorgarlik ko'rishda uning mazmunini oldingi dars mazmuni bilan bog'lash va u faqat o'qituvchi nuqtai nazaridan emas, balki o'quvchi shaxsi tomonidan ham o'ylanib, turli variantlarda tayyorlanishi zarur. Bu haqda pedagogik texnologiyada batafsil ma'lumot beriladi.

«Kommunikativ hujum» - o'z-o'zidan ma'lum bunda o'qituvchi o'quvchilarni tezda jalb qilish texnikasini bilishi, dinamik ta'sir va o'zini salobatli qilib ko'rsatish usullarini egallashi zarur.

Muloqotni boshqarish bosqichida o'quvchilar tashabbusini ma'qullash, dialogik muloqot olib borish, haqiqiy sharoitga moslab o'z fikrlariga tuzatishlar kiritish zarur. Va nihoyat, muloqotni tahlil qilish-uning maqsadi, mazmuni va natijasini taqqoslashdir.

Tabiiyki, o'qituvchi muloqotni, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashabbuskori va yetakchisi bo'lishi zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi.:

- «Biz» sezgisini vujudga keltirish;
- o'quvchilarga ta'sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;
- o'zini sinf (guruh) haqida ijobiy fikrga ega ekanligini his ettirish;

- faoliyatning aniq maqsadlarini ko'rsatish;
- o'quvchilarning ichki hissiyotlarini tushunish va ularga buni sezdirishi;
- ayrim o'quvchilarga nisbatan shakllanib borayotgan stereotip fikrlarni o'zgartirish.

Bularning hammasi yosh o'qituvchi faoliyatida samarali muloqot o'rnatishda to'siqlarga barham beradi.

Muloqotning individual uslubi.

Pedagoglar tomonidan turli tipdagi rahbarlarning aniq ijtimoiy-psixologik qiyofasi yaratilgan. Ularning jamoa bilan muloqot texnikasi domoq tahlil qilib boriladi. O'qituvchi ham rahbar sifatida tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqaradi, ular bilan turli xil muloqotda bo'ladi. Muloqotning o'zaro ta'sir etish funksiyasini e'tiborga olgan holda rahbarlik faoliyati uch uslubga bulinadi. Bu uslublar A. N. Lutoshkin (O'zini qanday tutmoq kerak) kitobida quyidagicha bayon etilgan:

1. Avtoritar uslub-tarang tortilgan kamon. Bunda o'quvchilar faoliyati, kim-kim bilan o'tirishi va ishlashini faqat o'qituvchi belgilaydi. O'quvchi tashabbusini bug'adi, ularni o'ziga xos qiziqarli olamda yashashlarini tan olmaydi. Asosan buyruq, ko'rsatma, yo'llanma berish va hayfsan e'lon qilish bilan o'quvchilarga ta'sir etadi. Hatto juda kam aytiladigan tashakkurnomani ham buyruq va nafsoniyatiga tegadigan ohangda aytiladi: «Bugun juda yaxshi javob berding, sendan buni kutmagan edim?!». Bunday o'qituvchi o'quvchini xatosini ko'rganda uning ustidan kuladi va ko'p hollarda bu xatolarini tuzatish yo'llarini ko'rsatmaydi. Uning yo'qligida o'quvchilar ish sur'ati pasayadi va hatto to'xtab qoladi. O'qituvchi ning fikri bunda ko'proq boshliqlik ohangida seziladi, boshqalar fikrini qabul qilmaydi.

2. Demokratik uslub (o'qituvchi bumerang). Bu uslubda rahbar o'qituvchi jamoa fikri asosida ishlaydi. O'qituvchi o'z faoliyati maqsadini har bir o'quvchi ongiga singdirishga intiladi, muhokamada barcha o'quvchilarni ishtirok etishlarini ta'minlaydi. O'z vazifasini faqat nazorat va to'zatishtlar kiritishdan emas, balki tarbiyalashdan iborat deb tushunadi. Har bir o'quvchi taqdirlanadi, unda o'ziga

ishonch hislari tug'iladi. O'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik o'qituvchi har bir o'quvchini qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ish taqsimlashga harakat qiladi, faol o'quvchilarni taqdirlab boradi, tashabbusga keng imkon beradi. Bunday o'qituvchi o'quvchilarga asosan iltimos, maslahat berish bilan muloqot o'rnatadi.

3. Liberal (kelishuvchi) uslub. Bu anarxistik va ko'ra-bila turib indamaydigan, o'quvchilarni bebosh, tarbiyasiz, yalqovlikka olib boruvchi uslubdir. O'qituvchi o'quvchilar hayoti bilan qiziqmaydi, unga aralashmaydi, jonbozlik ko'rsatmaydi, masalalarni hal qilishga e'tiborsiz bilan yondoshadi, bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni ham ma'qullaydi, sodir bo'layotgan voqyealarga javobgar bo'lishdan o'zini olib qochadi. Bunday o'qituvchiga ishonish va uning haqiqiy hurmatiga sazovor bo'lish mumkin emas.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib pedagogik muloqotni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- o'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtirishiga asoslangan muloqot;
- o'zaro do'stlikka asoslangan muloqot;
- muloqot-masofa;
- muloqot-qo'rqitish;
- muloqot-hazil-mutoiba.

Muloqot madaniyati-boshqalarni tushunishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirish, o'zini tushunishga ehtiyoj tug'dirishdir.

Muloqotdagi kamchiliklar:

- ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshini ortiqcha majburlash;
- passivlik, o'zini juda yuqori va past qo'yish;
- haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish.

II BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJ TALABALARINI KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA TAYYORLASHNING MAZMUNI SHAKL VA METODLARI

2.1. Dars jarayonida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning yo'llari

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlari-
mizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va
istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri
bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli
mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy dasturni amalga oshirish niyatida yangi o'quv standarti va o'quv
programmalarini yaratildi.

Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilarni bilim darajasi, yutuqlarga erishish
imkoniyatlarini aniqlash alohida ahamiyatga egadir. Bunday ish yuritish
o'qituvchiga o'quvchilarning qobiliyatini hisobga olishga yo'l ochadi, ta'lim oladi-
gan fanlarga nisbatan bolalarning istagi-yu intilishini bilishga, munosabatini o'rga-
nishga yordam beradi. Pedagogik o'yinlarni tayyorlash va o'tgazish jarayonida
pedagog muloqat uchun zarur bo'lgan ijodiylik elementlarining bo'lishiga alohida
e'tibor berish lozim, bu birinchidan; ikkinchidan bola bilan bevosita muloqotni
tashkil yetish jarayonida; uchunchidan o'z xulq atvori xatti-harakatini boshqarish-
da; to'rtinchidan o'zaro muloqot jarayoning o'zi ijodiy harakterga ega.

Biz shuni aniq bilishimiz lozimki, har qanday pedagogik vaziyat amaliy o'yinning ibtidosi sifatida ko'pgina aloqadorlik va o'ziga xos hususiyatlarni tarbiyalashga oid turli-tuman vazifalarni tashkil etish masalasida qiziqish uyg'otish mumkin. Biroq amaliy o'yinlarni tashkil etishda eng muhim o'rinni pedagogik vaziyatning yuksak emosionolliги va muammoligi egallaydi.

Mazkur hususiyatga ega bo'lmagan tipik pedagogik vaziyatlar o'quvchilarning diqatini o'ziga tortmaydi, qiziqish va bo'lajak amaliy o'yinlarning muvaffaqiyatli tarbiyaviy natijasini belgilash jihatidan g'oyat muhimdir.

Mazkur mashg'ulotni tashkil etishda o'qituvchidan o'z oldiga qo'ygan didaktik maqsadlarni his etishga qaratilgan faoliyatida o'quvchilar tanlagan rollarning mos kelishi talab etiladi. O'qituvchi amaliy o'yinlarda har dars o'tganida muntazam ravishda foydalanib boradilar. O'qituvchi ma'ruza o'qishda o'quvchilarni qiziqtirish uchun undagi qoidalarni yorqin yoritish natijasida ovozini past-baland yo'g'on-ingichka qilib o'qib beradi. Keyin mavzuni o'quvchilarga o'qitadilar. O'quvchilarning nutqini yaxshilash uchun ularni rollarga bo'ladilar. O'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik texnikasi asoslarini egallashga doir vazifalarni hal etishga o'rgatish yuzasidan biz quydagi amaliy pedagogik o'yinlar turlarini ajratdik:

- pedagogik nutq «texnika»sini rivojlantirishga doir amaliy pedagogik o'yinlar;

- psixologik holat va pedagogik faoliyat texnikasiga doir amaliy o'yinlar;

- pedagogik jamoa rahbari «roli»ga doir amaliy pedagogik o'yinlar.

- o'quvchilarda amaliy pedagogik o'yinlar jarayonida turli xil tarbiyaviy ishlar shakllarini qo'llash malakalarini hosil qilish.

O'quvchilarni amaliy pedagogik o'yinga tayyorlashni tashkil etish to'rt bosqichni o'z ichiga oladi:

- 1.Ijodiy mikroguruhini tanlash;

- 2.O'yinga jalb qilish;

3. Rollarni taqsimlash ;

4.O'qituvchining rejjessorlik faoliyati.

Pedagogik amaliy o'yinlarning turi va pedagogik vazifaga bog'liq ravishda o'quvchilarni tanlash mezonini turlicha bo'lishi mumkin.

Bu o'quvchilarning o'zaro psixologik mos kelishi, ayrim hollarda esa yuksak darajadagi desperssiya holatiga bog'liq. Guruh pedagogik o'yin mohiyati bilan yaqindan tanishtiriladi. Bu jarayonda ular muommoli vaziyat, boshlang'ich pedagogik axborot va amaliy o'yin ekispozitsiyasi bilan tanishadilar.

Rollarni bo'lishda o'qituvchi insonning xayotiy pozitsiyasi, xulk-atvor motivlari eosional holati bilan tanishadilar. Shundan so'ng topshirilgan rol ustida ishlashning idividual rejasi tuzilishi lozim. Quyidagi didaktik o'yin mashg'ulotlar keltiramiz.

Kollej o'qituvchisi bir yil mobaynida amaliy pedagogik o'yinlarning olib borilishi natijasida talabalarning ijobiy tomonga o'zgarganliklarini kuzatadilar. Ularning ijobiy tomonlari:

- muomalaga kirishuvi;
- notiqlik;
- mehribonlik;
- bolajonlik,
- samimiylik;
- xushmuomalalik;
- nazokatlilik;
- bosiqlik kabi yaxshi tomonlari rivojlanganliklari

Hozirgi kunda davr talabiga javob beradigan, raqobatdosh o'qituvchilar kerakdir.

Pedagogika kollej talabalarida psixologiya ta'limi bo'yicha o'quv amaliy o'yini.

Maqsad: Kollej talabalarining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga amaliy yo'nalish berish, ularning metodik malakalarini mukammallashtirish, talabalar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishga tayyorlash. "Guruxlarda

psixologiya ta'limini amaliyot bo'yicha o'tish metodikasi" kursi bo'yicha talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish darsga material tanlay bilish ko'nikmalarini takomillashtirish mashg'ulot reja-konspektini, instruktiv axborot beruvchi adabiyotlar tayyorlash, optimal o'qitish metodlarini tanlashga o'rgatish. O'quv ta'lim vositalaridan foydalanishni o'rgatish. Talabalarining anglash faoliyatini jadallashtirish, ularning kuchli va ojiz jihatlarini aniqlash, bu sohada muhim ahamiyat kasb yetadi. Talabalarda o'z bilimini oshirishga rag'batlantirish eng muhimdir.

O'quv amaliy o'yin uchun 80 minut vaqt ajratiladi.

1. Tayyorgarlik muddati 40 minut.

Talabalarda mavjud bo'lgan bilimlarni dolzarb muommoga aylantirish (lozim bo'lganda tegishli materialni o'rganish) dars kollejdagi asosiy ta'lim tarbiya shakli sifatida kollej talabalarida, pedagogika-psixologiya ta'limi darslarining o'ziga xos xususiyatlari.

Amaliy o'yinlar shartlari bilan tanishuv, ular haqidagi boshlang'ich ma'lumot, maqsadlari, o'tish metodikasi bilan tanishuv. Bu bosqichda ishtirokchilarning o'quv amaliy mashg'ulotlarga bo'lgan tayyorgarligi darajasi aniqlanadi. O'z bilimlarini oshirish maqsadida talabalar quydagi adabiyotlardan foydalanishlari mumkin.

1. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev R. Pedagogika Darslik – Toshkent.: O'qituvchi. 2001.- 510 b.

2. Pedagogika. Prof. A. Munavvarov tahriri ostida-Toshkent.: o'qituvchi 1996 y

3. Махмудов М.И Современный урок вопросы теории- М.:Педагогика. 1981-г-192-с

4. Атутов П.Р. Поляков В.А Роль трудового обучения в Политехническом образовании школьников Отврег. Ю.П. Авиричев др М.: -Просвещения 1985-г 128-с

5.Shodiyev N.Sh talabalarga kasb tanlashni o'rgatish-T:O'qituvchi,1987-282 b. va boshqalar.

Pedagogika o'yin qatnashchilarining huquq va burchlarining namunaviy dasturi.

Yosh o'qituvchi - yaqindaginada oliy o'quv yurtini tugatgan tashkilotchilik qobiliyatiga ega, bolalar va o'z ishini sevadi, o'z taqdirini kollej hayoti bilan chambarchas bog'lagan.

Kollej direktori (mudir) - kattagina pedagogik stajga ega bo'lgan tajribali pedagog, o'z jamoasi va kollej ta'limi boshqarmasida xaqli ravishda obro'-e'tibor qozongan. Yosh o'qituvchilarga qo'lidan kelgancha metodik yordam beradi, ma'nan ularni qo'llab quvvatlaydi, darslarni nazokat va hushmuomolalik bilan tahlil yetadi, ularning nuqsonlarini ham ehtiyotkorlik bilan tuzatishga undaydi.

Kollej ta'limi boshqarmasi metodisi - o'z sohasida ko'zga ko'ringan tajribali mutahasis. Mashg'ulotni kuzatgach asosan o'qituvchining pedagogik-metodik salohiyatini tahlil yeta oladi. O'z boy tarjibasini yosh pedagoglarga berishga amaliy yordam berishga qodir mutaxassis.

Mazkur darsda ishtirok yetuvchi kollej talabalailarining asosiy maqsadi tajriba almashuvidir. Ular mashg'ulotni kuzatadi uni tahlil yetishga faol ishtirok yetishadi, mashg'ulotni o'qituvchiga o'z ijobiy yoki tanqidiy fikrlarini aytishadi.

Guruh opponenti - o'yin qatnashchilari faoliyatini holissona baholaydi. Mashg'ulotlarining yutuq va nuqsonlarini tahlil yetadi.

Rollarni taqsimlash:

Bir talaba-dars o'tuvchi o'qituvchisi.

Bir talaba-kollej direktor.

Bir talaba-kollej ta'limi boshqarmasi metodisti.

Bir talaba-darsni kuzatuvchi o'qituvchi.

Bir talaba-guruh opponenti.

Qolgan talabalar boshlang'ich guruh talabalari rolini bajarishadi.

O'yinning borishi va vaqt taqsimoti

I bosqich (tayyorgarlik) o'yin o'tkazilishi shartlari bilan tanishuv dars mavzusini tanlash va unga tayyorgarlik ko'rish (40-minut).

II bosqich (asosiy) darsni o'tish (25-minut).

III bosqich (yakuniy) mashg'ulotni tahlil qilish, o'yin ishtirokchilarining amaliy takliflari, o'quv pedagogik o'yinni yakunlash (15-minut).

Boshlang'ich vaziyat:

“Pedagogika-psixologiya” xonasida talabalarni psixologiya ta'limiga o'rgatish amaliyoti metodikasi) predmeti bo'yicha o'tkaziladigan «psixologiya ta'limi darsi» amaliy o'yinni o'tkazish uchun I-kurslar uchun psixologiya ta'limining istalgan mavzusi tanlanishi mumkin. Yosh o'qituvchi rolini bajaruvchi talaba mashg'ulotni o'tishga (darsning reja-konspektini tuzish va h) tayyorlanishi lozim. Bundan asosiy diqqat dars mavzusiga, hayot bilan bog'liqligiga qaratilishi lozim.

Asosiy qism:

Amaliy o'yinni o'tkazishning asosiy bosqichlari.

1. Mashg'ulot uchun zarur adabiyotlar bilan tanishuv.

2. Rollarni taqsimlash va tayyorlash. O'yinda ishtirok yetuvchi qatnashuvchilarning huqu va vazifalarini tushuntirish (15-minut).

3. Rollarni taqsimlash (2-minut).

4. O'qituvchi rolini bajaruvchi talaba darsni tashkiliy qismdan boshlaydi (3-minut).

5. Darsning borishi o'tgan mavzu o'quvchilardan so'rab baholanadi (25-minut).

6. Talaba o'qituvchi rahbarligida yangi mavzuni bayon yetadi, o'zoro fikr almashiladi tavsiyalar ishlab chiqiladi (30-minut).

7. Amaliy o'quv amaliy o'yinning natijalarini tahlil etish (guruh oppanenti va oliy o'quv yurti professor o'qituvchilari ishtirokida 5 minut).

Mashg'ulotni yakunlash jarayonida talabaning ta'lim, tarbiya rivojlantiruvchilik vazifalarini qay darajada hal yetishi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan,

tajribalardan foydalana bilganligi, pedagog- psixologik adabiyotlardan foydalana olganligi, axborot vositalaridan foydalana bilganligi hisobga olinadi.

“I-kurslarda psixologiya darsi” o’quv amaliy o’yinini tahlil yetish va baho berishda quydagi jadvaldan foydalanish mumkin.

Umumiy topshiriq: amaliy o’yin qatnashchilarining faoliyatini besh ballik tizimda baholash.

1 - jadval

№	Talaba o’qituvchi	5	4	3	2	1	Etiroz va topshiriqlar
1	Tayyorgarlik darsning reja konspekti						
	-ilmiylik- -Sistemalilik- -ketma-ketlik- -ta’limning ko’rgazmaliligi- -darsning politexnik yo’nalish bilan ta’minlanishi						
2	O’quvchilarning politexnik dunyoqarashini rivojlantirish						
	-umum mehnat ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish darajasi -texnik fikrlash layoqatini rivojlantirish						
3	O’quvchilarning mehnat tarbiyasini amalga oshirish; -intizomlilik -mehnatsevarlik -faollik -mustaqillik						
4	Darsda o’quvchilar bilan kasbga yunaltirish ishlarini uyushtirish						

Talabalarning o’qituvchi rolini bajarishiga doir o’rtacha baho.

2 - jadval

№	Talaba maktab direktori (o’quv ishlari bo’yicha o’rinbosari)	5	4	3	2	1	E’tiroz va tavsiyalar
---	---	---	---	---	---	---	-----------------------

1	sifatlarning nomoyon bo'lishi: -nazokatlilik -xolislik -xayrixoxlik-qo'l ostidagilarga ijobiy axloqiy psixologik muhit va munosabatni tashkil eta olish layoqati						
	-yosh o'qituvchiga jadallik bilan yordam ko'rsatishga tayyorlik layoqati konstruktiv takliflar bilan chiqarish -Talaba faoliyatining direktor vazifasi talablariga mos kelishi						

Talaba tomonidan direktor (mudir) rolining bajarilishiga doir o'rtacha ball.

3 - jadval

	Kasbiy ahamiyatga yega sifatlarning namoyon bo'lishi. -boshlang'ich ta'lim metodikasi masalalarida mutaxassis bo'lish. -nazokatlilik -xolislik -yosh o'qituvchiga uslubiy yordam ko'rsata bilishga qodirlik -talaba harakatining u bajarayotgan metodistik rolga mos kelishi						
--	---	--	--	--	--	--	--

Talabani metodist rolini bajarishga doir o'rtacha ball

4 - jadval

	Talaba boshlang'ich sinf o'qituvchisi, dars kuzatuvchisi sifatida: Kasbiy muhim sifatlarning namoyon bo'lishi: -mashg'ulotni kuzatish va xulosa chiqarish malakasi. -o'z hamkasbi hatti-harakatini tanqidiy baholay olish layoqati. O'qituvchi darsini yanada yaxshilashga doir amaliy takliflar bera olishi. -talaba faoliyatining unga ajralgan rolga muvofiqligi						
--	--	--	--	--	--	--	--

Talabaning darsini kuzatuvchi o'qituvchi rolini bajarishga doir o'rtacha ball

5 - jadval

№	Talaba guruh opponenti.						
	-loyiqlik -xolislik -xayrihohlik -muhim takliflar bilan chiqa olishlik.						

Darhaqiqat, uzliksiz ta'limning bo'lajak mutaxassislar pedagogik kommunikativ faoliyatini shakllantirishning nazariy va metodologik muommolari xususida quydagicha fikr yuritish va ushbu masala yuzasida ba'zi bir muommoli fikrlarni o'rta tashlash kerak:

O'qituvchining pedagogik faoliyatida muomalaning roli juda muhim bo'lib, pedagogdan o'z kommunikativ faoliyatini mohirlik bilan boshqarishni talab etadi. Bu o'z navbatida, pedagogda qator kommunikativ muomala ko'nikmalari mavjud bo'lishini taqazo etadi. Bular quydagilar:

1. Kishilar bilan muomala qilish ko'nikmalari.

2. To'g'ri tashkil etilgan muomala tizimi orqali o'quvchilar bilan ijodiy hamkorlik faoliyatini uyushtirish.

3. Muomalani maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish ko'nikmasi.

Bulardan tashqari o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari ko'pgina boshqa tashkiliy qismlarni psixologik aloqa o'rnatish olish ko'nikmasi muomalada tashabbusni qo'lga olish, muomala jarayoniga moslasha bilish ko'nikmasi va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini egallash jarayoni nihoyatda serqirra va murakkab bo'lib, ularning muayyan kommunikativ qobiliyatsiz egallash mumkin emas. Pedagogning kommunikativ

qobiliyati muommosi taniqli psixolog N.V.Kuzminaning «O'qituvchi mehnati psixologiyasi ocherklari» kitobida mufassal qarab chiqilgan bo'lib, biz mazkur murakkab psixologik tuzilmaning faqatgina muhim jihatlari haqida fikr yuritdik.

Pedagogning kommunikativ qobiliyatlarining asosiy tarkibi turli-tuman ko'rinishdagi dilkashlik, odamga el bo'la olish sifatida nomoyon bo'ladi. Biz tez yengil va dag'al muomalaga kirisha oluvchi dilkash kishilarni bilamiz; yana shunday kishilarni bilamiz, suhbat xunik muomalada kishini charchatuvchi kishilar ham mavjud. Bunday kishilar kommunikasiya markazi bo'lishga harakat qilishadi. Bulardan tashqari odamovi, dilkashlikdan uzoq bo'lgan, biroq o'zining hatti-harakatini ma'qullashi bilan muomalani qo'llab-quvvatlovchi kishilar ham uchraydi. Yana shunday kishilar ham borki, ularda kommunikativlik darajasi juda past. Ular nihoyatda nodilkash, ular bilan biror bir yig'inda birga bo'lish g'oyatda qiyin, suhbat qovushmaydi va hakazo. Pedagogik faoliyatda dilkashlik, el bo'la olish faqat shaxsiygina bo'lib qolmasdan balki u pedagog kishining kasbiy-shaxsiy fazilatlari sifatida namoyon bo'ladi.

Dilkashlik (umuminsoniylik ko'lamida) tadqiqotchilar fikricha o'z tarkibida butun boshli qismlar majmuini qamrab oladigan ko'p qirrali hodisadir. Ularni 3 ga ajratish mumkin:

1. Chiqishimlilik kommunikasiya jarayonidan lazzatlana olish qobiliyati.
2. Ijtimoiy hamjihatlik jamiyat orasida bo'lish, boshqalar bilan birga bo'lish istagi.
3. Al'truistik yo'nalganlik - o'z manfaatlaridan voz kechish boshqalarga yaxshilik qilishga, g'amxo'rlik qilishga intilish, egoizmning aksi.

Chiqishimlilik mazkur qobiliyat mavjud bo'lmagan raxbar hodimlar va pedagoglar o'z kasbiy faoliyatlarida katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Chunki ular kishilar, bolalar bilan yaxshi chiqisha olishmaydi. Pedagogik faoliyat doimiy va uzoq davom etuvchi muomala tizimidan iboratdir. Shuning uchun ham chiqisha olish qobiliyati rivojlanmagan pedagoglar juda tez charchaydi, g'azablanadi, bu esa ish faoliyatining og'ir kechishiga olib keladi.

Ijtimoiy hamjihatlik vaqtincha ruhiy holat bo'lmasdan, shaxsning kasbiy pedagogik yunalganligi bilan bog'liq bo'lgan turg'un shaxsiy hodisadir.

Dilkashlik shaxsga xos xislat sifatida kasbiy shaxsiy fazilatga aylangach, pedagog muomalaning masuldorligini ta'min etishi mumkin. Dilkashlikka uch tarkibiy qism birligi sifatida ta'rif berish mumkin: bu muomalaga bo'lgan ehtiyoj, muomalagacha muomala paytida va undan so'ng o'zini yaxshi emosional his etish kommunikativ ko'nikma va malakadir.

O'quvchilar shaxsini shakllantirish jarayonida pedagogik munosabatlarning roli va ahamiyati ancha oshdi. Bu holat ta'lim tizimini shakllantirish, uning yangi muhim masalalarini ilgari surishga sabab bo'ladi.

Munosabat kommunikativ faoliyatning alohida turidir. Pedagogik munosabat avvalo tarbiyaning muhim omilidir. Bu o'quvchilarning o'zaro aloqalarini tashkil etish, sheriklarning bir-birlarini tushunish jarayoni, bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari kabilaridir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik munosabatlari, bilimlarini, mahoratlari va ko'nikmalarini tekshirish unchalik qoniqarli natijalar bermaganligi, avvalo pedagogik amaliyot davrida, kasbiy-pedagogik munosabatlar muommosiga katta e'tibor qaratishni talab etadi.

Talabalarning ana shu munosabatlar asoslari va ko'nikmalari o'zlashtirishlari jarayonida "Pedagogika" kursida umuman munosabatlar nazariyasiga xususan pedagogik munosabatlarga e'tiborni kuchaytirish, bu jarayonda me'yoriy yo'nalishlar va tashkiliy pedagogik xamda pedagogik munosabatning texnologik aspektlarida diqqat e'tiborni kuchaytirish, bundan tashqari subyekt-obyektlar munosabat jarayonida o'kituvchilar va o'kuvchilarga ko'yilgan talablarga e'tibor beriladi.

Talabalar bilan maqsadga muvofiq ravishdagi ko'p yillik ishlar tajribasi natijasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik munosabatlarga tayyorlashning quyidagi tizimi yuzaga keldi:

I. Dastlabki bosqich.

1. Sabablilik tashkiliy suxbat:

A) bo'lajak kasbiga ko'rsatma;

B) ijtimoiy-shaxsiy xususiyatdagi sabablari, maqsadlari va vazifalarini tushuntirish;

V) ko'zda tutilgan natijalarni tashkil qilish;

2. Talabalarning kasbiy-pedagogik munosabatlari bo'yicha boshlang'ich nazariy – amaliy bilimlarni o'rganish:

A) bilimlarni umumlashtirish va tahlil qilish;

B) kasbiy–pedagogik munosabatlar bo'yicha bilimlar darajasini, boshlang'ich, yetarlicha bo'lmagiligiga e'tiborini qaratib, talablarga tahlil natijalarini etkazish;

II. Asosiy bosqich.

1. O'rganilishi kerak bo'ladigan mavzular va masalalar to'plamini ko'rsatish.

2. Kasbiy-pedagogik munosabatlar asosiy nazariy asoslarini o'zlashtirish.

A) Pedagogik amaliyotda kommunikativ faoliyatiga ta'limning muhim qadriyati sifatida qarash;

B) O'quvchilarning kommunikativ-pedagogik faoliyatida kasbiy -pedagogik munosabatlarning roli va ahamiyatini aniqlash;

V) «Kasbiy-pedagogik (munosabatlarning roli) munosabatlar» tushunchasini, pedagogik munosabatlar vazifalari, xususiyatlari, turlari va shakllari, usullarini, uning san'atini, bu munosabat o'lcham, ko'rsatgichlarini, unga qo'yilgan talablarni ko'rib chiqish;

3. O'quvchilarning kasbiy-pedagogik munosabatlari va o'zaro avlodlarining amaliy tomonlarini.

A) pedagogik munosabatlarni tashkil etish asoslarini;

B) pedagogik mo'ljallar va ta'sir ko'rsatishlarini;

V) ushbu munosabatlarga tayyorgarlik, ko'zlangan maqsadlari va vazifalarini;

G) pedagogik munosabatlar jarayonini, o'zini, uning texnologiyasini;

D) pedagogik munosabat ularning variantlari, texnologiyalariga turli topshiriqlarni, ularni mustaqil, kasbiy-pedagogik bajarilishini (yechishini);

J) ushbu munosabatlar jarayonida o'quvchi va o'qituvchiga qo'yiladigan talablarni ko'rib chiqish;

III. Keyingi bosqich.

Talabalar - bo'lajak o'qituvchilarning nazariy-amaliy mashg'ulotlari .

1. Tayyorgarlik, ma'ruzalar, hisobotlar, referatlar ishlab chiqish.

2. Pedagogik insholar, insho-fikrlashlar yozish.

3. Pedagogik munosabatga e'tibor kuchaytirilgan darslarni kommunikativlik muommolariga bag'ishlangan chora tadbirlar senariylarini ishlab chiqish.

4. Pedagogik munosabatlarning xususiyatlari, turlari, ko'rinishlari shakl uslublarini muhokama etish.

-Dialoglar va tortishuvlar mazmuni va tematikasini(o'quvchilar uchun);

-Kommunikativ-pedagogik vaziyatlarnilarni, xususan pedagogik-kasbiy munosabatlarni;

5. Turli vaziyatlarda pedagogik harakatlar va qulay pedagogik munosabatlarni tanlaash;

6.Kasbiy-pedagogik munosabat bo'yicha nazariy va amaliy xususiyatidagi testlar o'tkazish;

7. Kasbiy-pedagogik munosabatlar bo'yicha maslaxatlar, eslatmalar, tavsiyanomalar ishlab chiqish, tuzish va eslab qolish;

8. Nutq ustida, talaffuzi tovushi, so'zsiz munosabatlar vositalari ustida ishlash (treninglar);

9. O'zini tutish, yurish, kiyinish va shu kabilarning o'qituvchi kommunikativ faoliyatidagi rolini muhokama qilish.

IV. Yakunlovchi bosqich.

1. Natijalarni boshlang'ich ma'lumotlar bilan taqqoslab o'rganish, umumlashtirish va tahlil qilish.

2. Yakun yasash.

3. Umumiy va kasbiy-pedagogik munosabatlar sohasidagi bilimlarni takomillashtirish bo'yicha taklif, tavsfiyalar ishlab chiqish.

V.Kasbiy-pedagogik munosabatlarni amaliyotda kuzatish (pedagogik amaliyot davomida) natijasida bo'lajak o'qituvchining o'ziga-o'zi baxo berish.

O'tkazilgan tajribalar talablar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik munosabatlarda aynan ana shunday nazariy materiallarni ifoda etish tizmida, undan intellektual, nazariy-amaliy foydalanishda, shu jumladan haqiqiy pedagogik vaziyatda o'ziga xos kasbiy sharoitlarda ijobiy natijalar berishini ko'rsatdi.

Ma'ruza va nazariy – amaliy mashg'ulotlarda quydagi asosiy talablarni hisobga olish kerak:

- sabablilik omillarini hisobga olish;
- pedagogik munosabatlarda talablarni muxokama qilish;
- kasbiy - pedagogik munosabatlarning turli texnologik shakl va turlarini o'rganish;
- munosabatlar nazariyasi bilan pedagogik munosabatning amaliy bog'liqligini hisobga olish;

Kasbiy - pedagogik munosabatlarda ijobiy natijalar asosini tashkil etuvchilari quydagilardan iborat bo'lgan pedagogik tizim sabab bo'ladi;

- aniqllovchi;
- taxmin qiluvchi;
- maqsadga intiluvchi, tashkiliy yunaltiruvchi;
- shakllantiruvchi (o'quvchilar bilan munosabatlar doirasida kasbiy-pedagogik bilim, mahorat va ko'nikmalar)

- haqiqiy amaliyotda olgan bilimlardan foydalanish o'qituvchining xulosasi va bulajak ukituvchining kasbiy–pedagogik munosabatlari darajasiga o'zi baho berishi.

Ko'rib chiqilgan tuzimga mos ravishda «kasbiy-pedagogik munosabat" muommosi bo'yicha ma'ruzalar olib boriladi. "Kasbiy – pedagogik munosabatlarni nazariy asoslari", "Pedagogik munosabat san'ati, pedagogik odob, uslub va munosabat san'at sifatida”.

Nazariy-amaliy ishlar mavzulari juda turli - tumandir. Masalan: "Inson, Men" ining sirlari, "Munosabat vaziyatiga qanday kirish mumkin? "Pedagogik muno-

sabatni o'quvchilar shaxsi rivojlanishiga yo'naltirilishi, «O'quvchilar bilan munosabatlarga odob va axloqning roli» «so'zsiz munosabatlar vositasi», «O'yin – pedagogik munosabatlarning eng muxim shakli», «Pedagogik munosabatlarning o'quv tarbiyaviy jarayonidagi roli va ahamiyati» va boshqalar.

O'qituvchining nutq madaniyati kommunikativ faoliyatining asosi hisoblanadi.

Tilning nazariy masalalari qanchalik ishlangan me'yoriy jixatdan belgilangan bo'lmasin, ularni o'rganishda, ulardan foydalanish va ko'nikmalar hosil qilishda loqaydlik, beparvolik, hatto ma'suliyatizlikka yo'l qo'yish, bugungi kun o'qituvchisiga xos bo'lmagan fazilatdir.

Shunday ekan, ona tilimizga nutqimiz madaniyatiga yuksak talablar bilan yondashishimiz, so'zlashish va yozish jarayonida uning barcha me'yoriy talablariga qat'iy rioya qilishimiz, go'zal muomala odobini yo'lga qo'yishimiz va shu orqaligina o'zimiz tarbiyalayotgan yoshlarga namuna bo'lishimiz va ta'sir o'tkazishimiz bugungi kunimizning asl talabidir.

Dehqon niholini parvarish qiladi, ulg'aytiradi, o'stiradi. Boshlang'ch sinf o'qituvchisi esa murg'ak bolani o'qishga, yozishga o'rgatadi, ta'lim- tarbiya beradi. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, tarbiyachi, o'quvchilarni parvarish qilishi, ulardagi yaxshi fazilatlarni tarkib toptirishi, yomon fazilatlarni bartaraf qilish kerak.

O'quv – tarbiya faoliyatini mohirlik bilan uddalashi uchun o'qituvchi bir qator - pedagogik fazilatlarni o'zida shakllantirishi lozim.

Uqituvchining - pedagogik fazilatlari umuminsoniy va milliy axloq odobning qonuniyatlari, tushunchalari, mezonlaridan tashkil topadi. O'qituvchi faoliyatining samaradorligi ham xuddi shunday fazilatlar bilan belgilanadi.

Maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchilari quydagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim

1.Pedagogik mahorat fazilatlari.

2.Axloqiy fazilatlari.

3. O'zini – o'zi tarbiyalash fazilatlari.

Yuqoridagi fazilatlarni o'zida mujassam yetgan o'qituvchigina bugungi kun talabiga mos ravishda ish yuritadigan mohir pedagog bo'la oladi. Lekin bugungi kunda hamma pedagoglar talab darajasiga javob bera olmayotganliklari achinarli hol.

Biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, muomala o'qituvchi faoliyatida eng muhim ahamiyatga ega hozirgi kun o'qituvchilarida esa muomala odobi, nutq madaniyati yaxshi rivojlanmagan.

Pedagogik muomala pedagogik ta'sirning eng muhim vositasi hisoblanadi va u ijodiy jarayonda sodir bo'ladi hamda takomillashib boradi. Kuzatishlar shundan dalolat berdiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik nochorliklarining aksariyat qismi ularning metodik tayyorgarligidagi kamchiliklar bilan bog'lanmasdan balki pedagogik muloqatning shakllanmaganligi bilan bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ko'proq ishlashi, izlanishi, yangi usullari, texnologiyalarini tadbiq qilishi kerak.

O'qituvchi o'zining ichki imkoniyatlarini diqqat bilan o'rganishi ifodali nazar solishdan foydalanaolishi, ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Uning nazari o'quvchilarga qaratilganda vizual muloqat hosil bo'ladi. Vizual muloqat texnikaviy xarakterga ega bo'lib uni ongli ravishda rivojlantirishga yerishish zarurdir. O'qituvchi sinfda hyech qachon o'zning qad – qomatini qanday tutishini, qanday harakatlanishini yoddan chiqarmasligi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z xulq - atvorini shakllantirishi lozim. Uning barcha harakatlari va gavdasi biror holatda turishi, bejirimligi va oddiyligi bilan o'quvchilarni o'ziga jalb qila olishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z o'qituvchisiga taqlid qiladi, unga o'xshashga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muomala qilganda, amalga oshiriladigan muloqotni faollashtirish nuchun gavdasini to'g'ri tutishi, bolalar bilan yuzma-yuz bo'lishi, mutanosib masofaga rioya qilmog'i lozim.

Imo-ishoralar yordamida amalga oshiriladigan verbal muloqot jiddiy emosional quvvatga ega. O'qituvchining nutqi his-tuyg'uga to'la, so'zlashuv ohangi aniq, ravshan, dona – dona, o'rtamiyona tovushda bo'lishi kerak. Qo'pol iboralar, begona tovushlarga yo'l qo'yilmaydi. O'qituvchi gapirayotgan bolaga sabr - toqat bilan munosabatda bo'lishi, nazokat me'yoriga rioya qilishi, uning gapini bo'lmasligi, fikr mulohazalariga tashbehligi bermasligi kerak.

Kollej o'qituvchisi va o'quvchisi bilan muloqat qilish quydagi shakl va usullarni o'z ichiga oladi.

- Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechish.
- Pedagogik o'yinlar.
- uy topshiriqlari
- imo-ishora mimikasi, talaffuz texnikasini rivojlantirishga mo'ljallangan qisqa muddatli muloqat mashqlari va hokozo.

Pedagogik o'yinlarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida pedagogik muloqat uchun zarur bo'lgan ijodiylik elementlarining bo'lishiga alohida e'tibor berish lozim. Hozirgi o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining soni emas, balki, sifatini yaxshilash kerak. Ular ijodiy muloqot, muomala madaniyatini, o'quvchilar dunyoqarashini anglay olish, ularni tushuna bilish kabi fazilatlarini, shakllantirish kerak. Ijodiy muloqot orqaligina, maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiyani tashkil etish mumkin. Ijodiy muloqat orqali shaxning bilish faolligi oshadi, shakllanadi, ruhiy to'siq olib tashlanadi, yaxshi natijalarga erishiladi.

Hozirgi texnika informasiyasi kuchaygan davrda o'qituvchining ongini har tomonlama rivojlantirish uchun quydagi masalalarga e'tibor berish lozim;

- a) o'qitishni hayot bilan mustahkam bog'lab borish;
- b) o'quvchilarning darsda va darsdan so'ng olgan bilimlari asosida mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirib borish ;
- v) dars jarayonida hozirgi zamon texnika vositalaridan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanib ish ko'rish;

- g) o'qituvchining eng samarali uslublaridan foydalanish, tajriba almashtirish;
- d) o'quvchi ongining har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qiladigan uquv uslubiy metodlaridan keng foydalanish.

O'qituvchi muaffaqiyatli ish olib borishida uning shirin so'zligi, har bir o'quvchiga e'tiborli bo'lishi va bolaning ichki dunyosiga kiraolishi katta ahamiyatga ega. Lekin hozirgi o'qituvchilarda shunga o'xshash ko'pgina munosabatlar shakllanmaganligi tufayli eng yaxshi pedagogik usul, metodika muaffaqiyatsizliklarga uchrashi kuzatilmoqda, zamonaviy texnika vositalari ko'zda tutilgan natija bermasligi mumkin. Negaki shaxsning shaxs "ichki dunyosiga" kira olish olmasligi muaffaqiyat yoki muaffaqiyatga erishishning asosiy sababi bo'lib hisoblanadi. Taniqli psixolog olim A. A. Leontiev maktablarda hali ham uchraydigan o'qituvchining "yomon o'zlashtiruvchi" o'quvchiga bo'lgan munosabatini shunday tasvirlaydi.

1. O'qituvchi "yaxshi" o'qiydigan o'quvchiga nisbatan "yomon" o'qiydigan o'quvchiga javob berishi uchun bir oz vaqt beradi, ya'ni uning o'ylashiga vaqt qoldirmaydi.

2. Agar javob noto'g'ri bo'lsa savolni qaytarmaydi, yordamchi savol bermaydi, darhol boshqa o'quvchidan so'raydi yoki o'zi to'g'ri javobni aytib qo'yadi.

3. Ba'zan esa liberallik qiladi – noto'g'ri javobni ijobiy baholaydi.

4. "Yomon" o'quvchiga noto'g'ri javob berganida tez-tez tanbeh beradi.

5. Xuddi shuningdek to'g'ri javob bersa kamdan-kam maqtaydi.

6. "Yomon" o'quvchi qo'l ko'tarsa ko'pincha payqamay qoladi, boshqa o'quvchini javob berishga chaqiradi.

7. Kamdan-kam kulimsiraydi, "yomon" o'quvchiga qaramaydi.

8. Undan juda siyrak so'raydi, ba'zan darsda u bilan umuman ish olib bormaydi.

Shunisi ajablanarliki, o'qituvchi o'zining bunday fe'lini ko'pincha anglab yetmaydi, tan olmaydi. Shuning uchun ham ko'pgina munosabatlar shakllanmagani sababli ijobiy natijalarga erishish qiyin.

Shu sababli o'qitishning sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchining kommunikativ faoliyati juda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq Birinchi sessiyasida "Biz kadrlar tanlash, joy-joyiga qo'yish va yangilash tizimini takomillashtirishimiz zarur. Buning uchun birinchi navbatda iste'dodli, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli so'zda emas amalda keng yo'l ochib berishimiz shart" degan edi. Bu fikrdan shunday xulosa chiqadiki yosh avlodga ta'lim tarbiya beruvchi malakali, oily va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxasislarni kasbiy pedagogik kommunikativ faoliyatga tayyorlash bugungi kunimiz talabidir.

2.2. Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari, tarbiyaviy ishlarda tizimlilik, tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligini baholash tamoyillari, kollejda o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish metodikasi, tarbiyaviy jarayonini boshqarish tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tahlil etish, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash texnologiyasi, oilaviy tarbiyaning mazmuni, an'analari, metod va vositalari, oila va maktabning o'zaro hamkorligi, oilani pedagogik tomondan qo'llab-quvvatlash, madaniy - ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor muovini ishini tashkil etish, guruh rahbari ishining mazmuni va metodlari, "Kamolot" yoshlar harakatini uyushtirish metodikasi, kollej o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida turli o'yinlar, tanlovlar, musobaqa va boshqa tadbirlarni tashkil etish metodikasi o'rgatadi.

Kollej hayotida, ta'lim - tarbiya jarayonini boshqarishda guruh rahbarining boshqalar bilan almashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos o'rni bor. U kollejda juda muhim va ma'suliyatli qiyofadir. Guruh rahbari faoliyatini aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'likdir. Shu jihatdan olib qaralganda, uni guruhning bosh tarbiyachisi, murabbiysi, deyish mumkin. U o'z guruh jamoasini tashkil qiladi, uyushtiradi va tarbiyalaydi, o'qituvchilar, bolalar tashkilotlari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan aloqa bog'lab, sinfdagi umumiy tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qiladi

Guruh rahbarining asosiy maqsadi, o'quvchilarini to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olishi va sinf rahbari

tomonidan o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishi kerak. Kollejda o'quvchilarga tarbiya sinf rahbarining ishlari orqali beriladi.

Jumladan, tadbirlar, mushoiralar, har xil kechalar, uchrashuvlar, tanlovlar va boshqa o'yinlar orqali o'quvchilarga ta'lim tarbiya beriladi va ularning kommunikativ faoliyati rivojlanishiga turtki bo'ladi. Shunga qarab o'quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi.

Guruh rahbari maktab ma'muriyati bilan birgalikda va mahalla jamoasi, otalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Maktab ma'muriyati sinf rahbari va uning olib borayotgan ishlarini doimo qo'llab-quvvatlashlari lozim. Chunki guruh rahbari o'z o'quvchilarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalash uchun nimalar kerakligini hisobga olib ish yuritadi. Guruh rahbari ishini ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha ya'ni tashkilotchi direktor o'rinbosari boshqarib turadi.

Guruh rahbarining ish rejasini kollej direktori va direktor o'rinbosari tuzadi va nazorat qilib boradi.

O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablar berishga erishadi, otalar, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari jamoatchilik bilan doimo aloqa bog'lab turadi. Zarur bo'lgan vaqtda o'qishda o'quvchilarga yordam ko'rsatishni tashkil etadi. Guruh rahbari qiladigan ishlari xujjatlarini olib boradi va uni kollej ma'muriyatiga taqsim etadi. O'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlashga doir ishlarni o'tkazadi va jismoniy hamda aqliy mehnat qilishga o'rgatib boriladi.

Guruh rahbarining va o'qituvchining asosiy vazifasi har bir o'quvchining fikrlashga hamda kommunikativ faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa bolalarda o'qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash uy vazifalarini bajarishda rioya qilishni olgan bilimlarini, amalda qo'llash kabi bilim olish uchun zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning aqliy va jismoniy taraqqiy etishga madaniyatli bo'lib harakat qilish va hamisha bu haqsa gamxo'rlik qilish lozim.

4. O'quvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish.

O'quv mehnati bilan dam olishni to'g'ri tashkil etish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lim samaradorligini oshiradi. Uquvchilar rejimga itoat etishlarini o'qituvchi, guruh rahbari va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. Shu yul bilan ularni muvaffaqiyatli o'qishga, o'quv mehnatida saramjonlikka o'rgatish mumkin.

5. O'qish jarayonida o'rtoqlariga yordam berishni uyushtirish.

O'rtoqlariga o'zaro yordam, guruhda ulgurmovchilikni, ikki yillikni va maktabni tashlab ketish hollarining oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga guruhda o'rtoqlik do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishiga olib keladi.

6. Guruh o'quvchilari bilan alohida bo'lishi va yaxshi hamkorlik.

Guruh rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinflarda dars beruvchi boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida sinf rahbarining va shu sinfda ishlaydigan boshqa o'qituvchilarning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'quvchilarga nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi.

Shuni ham unitmaslik kerakki, bolaga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g'oyat darajada ko'paydi: oila, keng jamoatchilik, radio, televideniya kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Sinf rahbari bolalarni yaxshi bila olishi uchun ularni o'rganish darsda, darsdan tashqari vaqtlarda umuman bolaning hayoti o'tadigan barcha sharoitlarda amalga oshiriladi. Bolani o'rganish bilan sinf rahbari uning individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi.

Bolaning individual xususiyati uning xulqiga, o'zlashtirishiga munosabatlariga jamoadagi o'rniga ta'sir etadi. Shu boisdan ham jamoadagi individlar tarbiyalanayotganda alohida o'quvchini unitish yaramaydi. Chunki sinf rahbari ko'pgina tashkiliy ishlarni uyushtirishda kimga suyanish, kimga qanday vazifa yuklash, kimga mustaqillik berish va kimga muntazam yordam berish kerakligini

faqat ularning individual xususiyatlarini yaxshi bilish tufayligina bexato aniqlaydi. Demak, individual munosabat bolaga tarbiyaviy ta'sir etishning eng samarali yo'lini topish imkoniyatini beradi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbari butun sinf jamoasini ham o'rganishi kerak.

Bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat hollarda, o'quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo'llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko'p maktablarda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmokda. O'quvchilarga biror bir fan bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda «Agar tirishsang, bu sening qo'lingdan keladi» degan gapni uning qulog'iga quyish kerak. Buni o'quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o'qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To'g'risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o'quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo'lishi kerak. O'quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o'rganishga, o'z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o'zi yasayotgan o'quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zahirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o'rganadi.

Kollej o'quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog'likdir. Maktab hovlisidagi bog', tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jarayon - daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok

kesish, daraxt o'tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar yetishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu hol ularni botanika, geometriya, jo'g'rofiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o'rganishga rag'bat uyg'otadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarning mohir ustalari bo'lib yetishish mumkinmi? Bolalarga ijtimoiy fanlarga qiziqishni orttirish uchun ularni turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Chunki ijtimoiy fanlarning imkoniyati o'quvchilar kommunikativ faoliyatini o'stirishda kengroq o'rin egshallaydi. Huddi shuningdek, fizika, ximiya, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o'quvchilarda havas o'yg'otadigan juda katta hayotiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda guruhlarini, o'quv xonalarini va kollej binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg'otadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyg'otadi.

Bugungi kunda turli fanlar bo'yicha qiziqarli adabiyotlar nashr qilinmokda: «Mashhur kishilar hayotidan», «Qiziqarli matematika», «Qiziqarli botanika», «Qiziqarli jo'g'rofiya», «O'simliklar hayoti», «Bizni o'rab turgan olam», «Tariximizga bir nazar» va hokazo ilmiy-ommabop turkumdagi bu kitoblar o'quvchilar qo'lga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap. Kitobdan ham yaqinroq do'st, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi bormi o'zi? Qancha ko'p kitob o'qisa talabalar kommunikativ faoliyati shuncha kengayadi.

O'quv jarayonida fanlar bo'yicha o'zaro bog'lanishga katta e'tibor berish kerak. Bundan o'qituvchiyu o'quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar yechish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o'lchov birliklari qo'llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o'rganadigan mavzular bo'ladiki, ularda ikkala fan o'qituvchisi ham bir darsda o'z sohalari bo'yicha tushuncha bersalar nur ustiga nur bo'ladi. Adabiyot-tarix, mehnat-

botanika, tarix-jo'g'rofiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. Bolaning muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda yondashish va fan asoslarini o'rganishga havas uyg'otish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarni bilish faolligini takomillashtirish uchun to'garak, fakultativ mashg'ulotlari jarayonida kengroq foydalanish lozim. Guruh rahbari o'z o'quvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida ma'lumotlar bilan fan o'qituvchilarini tanishtiradi, bolaga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham bo'ladiki, biror fandan o'zlashtirmayotgan o'quvchi bilan guruh rahbarining o'zi bevosita ish olib boradi. «Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qo'ymaymiz», deb dalda beradi shogirdiga. Kerak bo'lganda, a'lochi o'quvchilarni yoki ushbu fan o'qituvchisini ham ko'makka chaqiradi. Bundan o'quvchini ko'ngli tog'dek ko'tariladi, yolg'iz emas ekanligini tushunadi, topshiriqni o'zlashtirishga harakat, havas uyg'onadi.

Bolalarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas'ullikni sezmagan o'quvchi pala-partish o'qiydi. Mas'ullik kishini sergak torttiradi, o'quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi. Ma'lumki, ongli intizom va mas'uliyat hissini sezish maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

Bolalarning intizomli bo'lishida sinf rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o'rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

Bu ishlarni guruh rahbari bir o'zi emas, balki o'qituvchilar, sinf jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Guruhda intizomni saqlash va joriy qilish faqat guruh rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto'g'ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas'uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab

tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko'p vaqt qilingan mehnatni bir paytni o'zidayoq yo'qqa chiqarish mumkin. Masalan, sinf rahbari va ayrim fan o'qituvchilari darslarida bolalar jim, intizomli o'tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o'quv yumushlari bilan band bo'lishadi; ba'zi o'qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog'oz otishadi, natijada o'qituvchi tajanglashadi, o'quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir kollej hayotida uchrab turishi tabiiy.

Nega shunday bo'ladi? Bu holatda o'sha fan o'qituvchisining o'zi aybdordir. Negaki u dastlabki mashg'ulotlaridayoq o'z «siri»ni bolalarga oldirib qo'ygan. O'ta ko'ngilchan, so'zlari, harakatlari ta'sirsiz, bo'shang, muloyim, bolalarni o'ziga jalb qilolmaydi, nutq yaxshi emas, tashkilotchilik qobiliyatiga ega emas.

Xo'sh natija nima bo'ladi? O'qituvchi o'z kayfiyatini buzadi, jismonan charchaydi, o'quvchilarni uradi, dars maqsadiga erishish u yokda tursin, darsni to'liq o'tolmaydi, bundan ham yomoni o'quvchilar intizomini buzadi, guruqda tarqoqlikni, boshboshdoqlikni vujudga keltiradi. Mana, sizga birgina bo'shang o'qituvchining keltirgan ziyoni.

O'quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni kollejga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, uy vazifalarini bajarishga, saranjomlikka o'rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash -maktabning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Guruh rahbarlari huddi shunday holatlarga o'z e'tiborlarini qaratishyaari lozim. Butun guruh o'qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiq qo'llikni, guruhda intizomni saqlash, o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo'yish lozim.

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda bolalarning partada qimirlamay o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'zicha intizom o'rnatmoqchi bo'ladilar. Sinf xonasiga qosh-qovog'idan qor yog'dirib kiradilar, dag'-dag'a qilib bolalarni siquvga oladilar, gah desa qo'lga qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo muloqatga

kirishib bo'lmaydi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu talabalar qalblariga adovat urug'ini sochadi, ularni sovuqqon, qo'rqqon, jur'atsiz, yolg'onchi, ozurda qilib qo'yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o'quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg'in, ijodiy, ko'rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg'otish, lol qoldirish, dars o'tilgach birorta ham o'quvchini «beish» qoldirmaslik - har biriga o'ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Intizomli bo'lish nafaqat maktabda, balki o'quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. Chunki, inson hayotining chigal va murakkab so'qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o'yin, tabiatda, baxs-munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofikdir.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik - ta'lim-tarbiya amaliyotga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish.
2. Tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish.
3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o'rganib borish.

4. Tarbiya jarayonida o'quvchi bilan o'quvchi faoliyatini optimal-lashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.

5. Ilmiyli-yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish.

6. Buning uchun bolalarni rejadagi mavzular asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir.

7. Ilg'or tajribalarga suyanish.

8. Tarbiyaning maqsadini aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o'quvchining ijodiy mustaqil faoliyati, tarbiya jarayonida maqol, matal, xalq og'zaki ijodidan o'rinli foydalanish, o'yin teks savollari, ko'rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.

9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o'qituvchi nazariy chuqur bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Yangi talabalarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televideniye, ma'naviy o'yinlar, mushoiralar qo'llanilishi mumkin. Kishilik jamiyatining har bir sohasi u yoki ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishini xalq og'zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarida, afsona, doston, ertak, hissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikirli, dono, ma'rifatparvar, mutafakkirlarimizning asarlarida atroflicha talqin etilgan. Shu asarlardan o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asarlardan keng foydalanish mumkin. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyasi odobligi, uning kommunikativ muomalasida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni barqaror etadi:

- islohotlarning takdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yurituvchi;

-siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalmilallikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

-xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oddidagi xuquq va burchlarini bilishi, ularga qat'iy amal qilishi. Qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bo'lish.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilmag'xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlr madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi. Tarbiyachilar, guruh rahbarlarining sinfdan va darsdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofikdir.

1. **Og'zaki ish usullari.** Turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig'inlar, ma'ruzalar, kitobxonlar konferensiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, og'zaki gazetalari, radiojurnallar.

2. **Amaliy ish olib borish usullari,** turli joylarga sayyohliklar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar.

3. **Ko'rgazmali ish** usullari. Kollej muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qolibiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, axil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishlari lozim.

Jamoat tashkilotlari o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan xilma-xil mashg'ulotlarni o'qituvchilar yordamida tashkil qiladilar. Sinfdan tashqari ishlar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma-xil: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ijtimoiy foydali, badan tarbiya-sog'lomlashtirish ishlari bo'ladi. Sinfdan tashqari ishlar uch xil formada: ommaviy, to'garak va individual formalarda tashkil qilinadi.

Ommaviy formalar: Ertaliklar, kechalar, bolalar bayramlari, ko'riklar, quvnoqlar va topqirlar to'garagi, sayr, muzeylari, bolalar ishlarining ko'rgazmalari va hokazolar.

To'garak ishlari: maktabdagi har bir to'garak o'zining doimiy ish kunlari va soatlarig ega bo'lishi lozim. To'garakda qat'iy intizom bo'lishi: to'garak a'zolari mashg'ulotlariga kechikmasdan kelishlari, to'garak topshiriqlarini batartib bajarishlari, to'garakning moddiy boyliklarini ehtiyot qilishlari kerak.

Darsdan tashqari individual ish: har bir o'quvchi mayl va qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Bu ishd sinfdan tashqari o'qish katt ahamiyatga ega. Kollejda har bir guruh uchun sinfdan tashqari o'qish dsturi bor. O'quvchining nima o'qiyotgani va o'qigan nrsalarini qandy idrok qilayotganini o'qituvchi bilishi juda muhim. Shuning uchun o'qituvchining

sinfidan tashqari o'qishga rahbarligi eng yaxshi kitoblarni targ'ib qilish va o'quvchilarda o'qilgan darsliklarni to'g'ri, chuqur idrok etishni rivojlantirishdan iborat.

Individual topshiriqlarning turlari juda ko'p bo'lib, o'simliklar o'stirish, gullar, suxandonlik ana shunday topshiriqlar jumlasiga kiradi. Individual topshiriqlarda har bir o'quvchining imkoniyat va qiziqishlari hisobga olinsa, ular bolalarning qobiliyatlari, iste'dodlarini o'stirishga yordam beradi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida bolalarning madaniy ehtiyojlari va kamolot darajalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ularga muvofiq tarzda ayrim o'qituvchilar, gruh yoki butun gruh bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish.

Kollejdan tashqari ishlar bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni ihtiyoriy ravishda, faol va mustaqil qatnashishlari sharoitida tashkil qilinadi.

Tuman, shahar, o'lka va respublika hamda maktab o'quvchilari saroylari va uylari - ancha keng tarqalgan maktabdan tashqari muassasalardir. Ular xalq maorifi organlari rahbarligi ostida ishlaydilar.

Maktabdan tashqari mussasa bolalar kutubxonasining ishi diqqatga sazovor. Kutubxonaning butun ishi talabalarga yaxshi tarbiya berishga, fan asoslarini o'rganishda o'quvchilarga yordamlashishga, talabalarda o'qish madaniyatini tarbiyalashga, kommunikativ rivojlatirishda, mustaqil ravishda bilim olish malakalarini hosil qilish va mustahkamlashga qaratilgan.

Ko'pgina maktabdan tashqari muassasalarning ishlari misolida, maktabdan tashqari muassasalar o'quvchilar bilan olib boriladigan t'lim-tarbiya ishida maktab va oilaga jiddiy yordam bermokdalar degan xulosaga kelish mumkin. O'qituvchi muayyan aholi yashaydigan joyda maktabda qanday muassasalar borligini bilib, ular bilan hamkorlikda qilinadigan ishni yo'lga qo'yadi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni to'garaklarga yo'llaydi. Maktab bolalalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni rejalashtirishda

maktabdan tashqari muassasalardan olishi mumkin bo'lgan yordamni ham nazarda tutadi. Kollejning tarbiyaviy ish rejasini bolalar muassasalarining rejasiga moslashtirish zarur. Kollej tarbiyaviy ish rejasini o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida olib boriladigan ishlarning forma va metodlarini, ularni oqilona yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi, maktab tarbiyaviy ishining umumiy rejasini tuzadi hamda o'quvchilarga har tomonlama tarbiya berishda maktab o'qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalar hamda maktabni otaliqqa olgan tashkilotlarning ishlarini bir-biriga muvofiqlashtirad.

Go'zal kitoblar ajib narsalarni ko'ruvchi, avlokda sirdosh, yolgizlikda do'st, ojizlik vaqtlarda yordamchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi, u zamon ahvolidan so'zlovchi, ummatlar voqiotini hikoya etuvchi, aqlli kimsalarning aqllarini ko'rsatuvchi, oz haqli ko'p foydali narsalardir. Shuning uchun kitob olmakda baxillik etmangiz, kitoblardan ayrilmangiz.

Lekin kitoblar orasida yo'q, narsalar yozilmish – ma'nosiz narsalar ila to'lganlarida bordir, bo'larni o'qimoq, qiymatli umrni zoye etmakdir. Shuning uchun fikrlarni nurlantirajak, hulqi poklarga yordam berajak, aklni ortirajak kitoblarni ixtiyor etib, boshqalardan yiroq bo'lingiz. Foydali kitoblarni o'qimak kungliga shodlik keltirur, fikrga oziq bo'lur, zehnga quvvat berur...

Ba'zi kimsalar bo'ladiki, "kitobi ko'b" deb xalq orasida nom chiqarmoq uchungina kitob yig'ib, o'zlari hyechda foyda olmaslar. Boshqalarga-da» foyda oldirmaslar, hatto ichlarida nimalar borliginida bilmaslar. Bular yuk tashuvchilar misolidadir. Shuning uchun sizlar o'zingiz foyda olajak bo'lgan kitoblarni o'zingaz foyda olmoq uchun ixtiyor etingiz.

Mutola insonning yuziga nur, ko'ngliga shoddik keltirur. Ushbu sabab uchun zehn xizmati ila mashg'ul bo'luvchilar harnaqadar oriq bo'lsalar-da, aqlari semiz va muhabbatli bulur.

Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyalanganligi, odobliligi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalani asosiy vositasi til. Xalqimizda

shunday naql bor «Bola shirin soʻzning gadoyi», bas shunday ekan tarbiyachi muomalasida tilga juda ehtiyotkor boʻlishi kerak. Tili shirin, xushmuomala oʻqituvchi eng obroʻlidir. Husayn Voiz Koshifiy shunday degan edilar: «Haq vaqtini soʻzlar aytursizlar yaxshi soʻzdin boʻlakni ayt mangizlar va koʻp soʻzlamoq koʻngilni qaro qilur» yoki «Mumkin ersa yaxshi soʻz qil oshkor, yaxshi soʻzdin xoʻb yoʻkdur yodgor»; «Nasihatin shirin soʻzu muloyimlik birla ibtido qilgan, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushroʻylik koʻrgazmai nasihat korga kelmas».

Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahoratida eng avvalo til shirinligi, «Shirin soʻz koʻngillar uchun bamisli asaldir» degan edi.

Kaykovus oʻzinipg «Qobusnoma» asarida «Suxandonlik bila baland martabal boʻlmoq» zikrida shunday hikoyatni keltiradi:

Xorun-ar Rashid bir tush koʻrdiki, ogʻzidan barcha tishlari toʻkilmish. Erta tong turib bul tushning taʼbirini aytuvchini chaqirib soʻradikim, .. bu tushning taʼbiri nedur?», «Andogʻkim, sendan oʻzga hyech kim qolmaguvsidir». Bu soʻzni eshitibon Xorun ar-Rashid "Mening yuzimga bundoq dardlig va anduqligʻ soʻzni aytding.

Mening barcha qarindoshlarim oʻlsalar, soʻngra men qandogʻ ishga yararman va na yangligʻ roʻzgʻor soʻrarman?» - dedi va unga yuz tayoq urmoq buyurdi.

Soʻngra yana bir taʼbirchini chaqirib soʻradi.

...Taʼbirchi dedi: «Ey amir al moʻmin-in, sening umring barcha akrobatlaring umridan uzoq boʻlur» Xorun ar-Rashid: dedi: «Barcha aqling yoʻli birdur va ikkovingning taʼbiring negizi bir yerga borur, ammo bu iborat bila ul iboratning orasida farq bagʻoyat koʻpdur». Buyurdi soʻnggi taʼbirchiga yuz tillo berdilar.

Bir donishmand jamoaga qarab: - bir gapim bor, uni ming soʻmga sotaman, istovchilar boʻlsa marhamat! - dedi. Suhbat ishtirokchilari hayron qolishib «qanday gap ekan» - deb soʻrabdilar. Shunda donishmand, bu gap: - «oʻylab ish qil»! degani, debdi, donishmandning bu gʻoyasidan shuni anglamoq lozimki,

o'ylab ish qilgan odam muomalasida qiyofasi bo'lishi (bosh, yuz va xatti-harakatlarini odob yuzasidan boshqarishi) kerak ekan.

Qo'pol, odobsiz gaplarga o'rin qoldirmaslik, bola ishtaxsiga tegadigan qo'pol muomala qilish o'qituvchining izzati va obro'siga putur yetkazadi.

Pedagog olim Suxomlinskiy muomala mahoratini kuchi va uning yashirin sirlarini "Bolalarga fido" asarida shunday bayon etkan edi: «... Yuksak tuyg'u madaniyatga ega bo'lgan o'qituvchi bog'chaning kayfiyati noxushligini darxol faxmlaydi. Bu eng avvalo uning ko'zidan bilinadi, ...U bola ko'nglidagi tashvishni sezganini, qanday yo'l bilandur ma'lum qilish yo'lini topadi. ...Keyin bolani tanho topib, surishtirishi ham mumkin. ...Bolaning axvolini tushunish, unga hamdard bo'lish, madad berish kerak.

Ko'pincha hamdardlik, rahmdillik chin ko'ngildan gaplashish bolaning diliga xush keladigan eng yaqin yordam bo'ladi. Beparvolik, loqaydlik esa bolaning dilini larzaga soladi!»

Bola qalbini nuraflashon qiluvchi vosita o'qituvchining jonli so'zi, uning ruhini tushiruvchi ham o'sha so'zning bayonidir. Xalkda «Gapdan gapning farqi bor, o'ttiz ikki narhi bor» deb bejiz aytilmagan. shunday naql bor «Bola shirin so'zning gadoyi», bas shunday ekan tarbiyachi muomalasida tilga juda ehtiyotkor bo'lishi kerak. Tili shirin, xushmuomala o'qituvchi eng obro'lidir. Husayn Voiz Koshifiy shunday degan edilar: «Haq vaqtini so'zlar aytursizlar yaxshi so'zdin bo'lakni ayt mangizlar va ko'p so'zlamog ko'ngilni qaro qilur» yoki «Mumkin ersa yaxshi so'z qil oshkor, yaxshi so'zdin xo'b yo'kdur yodgor»; «Nasihatin shirin so'zu muloyimlik birla ibtido qilgan, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushro'ylik ko'rgazmayiy nasihat korga kelmas».

Demak, talabalarining kommunikativ faoliyatini shakillantirishda darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning o'ziga xos o'rni bor. Talabalar o'z nutqini o'stirishi uchun ko'p o'qib izlanishi lozim, ana shundagina o'zlari ko'zlagan maqsadga erishadi.

2.3. Pedagogika kollej talabalarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuzasidan olib borilgan tajriba sinov ishlarining natijalari va samaradorligi

Pedagogika kolleji talabalarida kommunikativ faoliyatni shakllantirishga oid bilim berishga yo'naltirilgan modulli texnologiyalarning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida 2010-2011 yillar davomida Samarqand 1-son pedagogika kollejida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish maqsadida tajriba guruhlardagi o'quvchilar soni 60 ta, nazoratdagisi esa 60 ta qilib olindi hamda tajriba o'tkaziladigan guruhlarda o'quv materiallarining didaktik ishlanmalari tayyorlandi. Bu o'quv materiallari bilan tajriba - sinov ishlarini amalga oshiradigan talabalar tayyorgarlikdan o'tkazildi.

Talabalarining kommunikativ faoliyatini aniqlash maqsadida ularga turli savol-javoblar, ma'ruzalar va test topshiriqlarini taqdim qildik (1-va 2-ilovalarga qarang) hamda ko'p balli tizim asosida baholash metodidan foydalandik. Har bir guruh talabalariga 10 tadan test berildi. Bunda shartli ravishda olingan to'g'ri javoblarga quyidagicha baho mezonini belgiladik:

- 0 ta savolga-0 ball;
- 0-4 tagacha savolga-3 ball;
- 5-8 tagacha savolga-6 ball;
- 9-10 tagacha savolga-10 ball.

Talabalarga taqdim qilingan testlarni umumlashtirish natijasida Samarqand 1-son pedagogika kollejida boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya yo'nalishi (105-, 106-, 107-, 113-guruh) talabalarining kommunikativ faoliyatini shakllantirish darajasi tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida quyidagicha holatda bo'lganligini aniqladik.

1-kurs talabalarining kommunikativ faoliyati darajasini aniqlash uchun 10 ta test tanlab olindi. Bu savollarga tajriba guruh(106, 107)lardagi 60 (100%) o'quv-

chidan 10 tasi (16,6%) 10 ball, 20 tasi (33,3%) 6 ball, 24 tasi (40%) 3 ball, 12 tasi (20%) 0 ball olgan. Bitta ham savolga to'g'ri javob bera olmagan o'quvchilar soni 6 tani (6%) tashkil etgan. Nazariy guruh(106, 107)larda esa 60 (100%) o'quvchidan 10 tasi (16,6%) 10 ball, 18 tasi (30%) 6 ball, 20 tasi (33,3%) 3 ball va 12 tasi (20%) 0 ball olgan.

6-jadval

Guruhlar bo'yicha pedagogika kolleji talabarida kommunikativ faoliyatini shakllantirish darajasini tajribaning boshida aniqlash natijalari

Guruhlar		O'quvchilar soni	JAVOBLAR			
			10 ball	6 ball	3 ball	0 ball
Nazorat	105-guruh	30	5	9	10	6
	113-guruh	30	5	9	10	6
Tajriba	106-guruh	30	5	10	12	3
	107-guruh	30	5	10	12	3

Yuqorida keltirilgan tajriba-sinov natijalaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, Samarqand 1-son pedagogika kolleji talabalarining 120 ta boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talaba-o'quvchilarining nutqqa oid bilimdonlik darajasini aniqlash maqsadida ularga topshiriqlar berildi. Shundan tajriba guruhlardagi 60 ta (100%) o'quvchidan: 9 tadan 10 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar soni 8 ta (13,2%), 5 tadan 8 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 16 ta (26,5%), 4 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 24 ta (39,7%), bitta ham topshiriqni to'g'ri bajara olmaganlar 12 nafarni (20%) tashkil qilgan.

Nazorat guruhlardagi 60 ta (100%) o'quvchidan: 9 tadan 10 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 8 ta (14,1%), 5 tadan 8 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 14 ta (23,7%), 4 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 25 ta (41,6%), bitta ham topshiriqqa to'g'ri javob bermaganlar 13 tani (21,1%) tashkil qilgan.

Pedagogika kollej talabalarining kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilimdonligining tajriba-sinov ishlari boshidagi darajasi

Guruhlar	O'quvchilar soni	JAVOBLAR			
		10 ball	6 ball	3 ball	0 ball
Nazorat	60	10	18	20	12
Tajriba	60	10	20	24	6

Tajriba-sinov yakunida tajriba guruhlaridagi talabalarning kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilimdonlik darajasi nazorat guruhidagi talabalaridan ancha yuqoriligi kuzatildi.

1-kurs talabalarining kommunikativ faoliyatga oid bilimdonlik darajasini tajriba-sinov yakunida aniqlash maqsadida, ularga 10 ta test berildi. Bu savollarga nazorat guruhlaridagi 60 ta (100%) talabaidan 10 ball olganlar 12 ta (20%), 6 ball olganlar 25 ta (41%), 3 ball olganlar 19 ta (32%), 0 ball olganlar 4 tani (7%) tashkil etdi. Tajriba guruhlarida esa 60 talabadan (100%) 14 tasi (23%) 10 ball, 26 tasi (43%) 6 ball, 18 tasi (30%) 3 ball, 2 tasi (4%) 0 ball oldi.

Guruhlar bo'yicha boshlang'ich guruh talabalarining kommunikativ faoliyatni shakllantirishga oid bilimdonlik darajasi tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalari

Guruhlar		Talabalar soni	JAVOBLAR			
			10 ball	6 ball	3 ball	0 ball
Nazorat	105-guruh	30	6	13	10	2
	113-guruh	30	6	12	9	2
Tajriba	106-guruh	30	7	13	9	1
	107-guruh	30	7	13	9	1

Yuqoridagi natijalarni umumlashtirib quyidagi xulosaga keldik. Tajriba-sinov yakunida berilgan topshiriqlarga 60 nafar (100%) nazorot guruhidagi o'quvchilardan 23 tasi (15,2%) 9 tadan 10 tagacha topshiriqni, 43 tasi (28,4%) 5 tadan 8 tagacha topshiriqni, 58 tasi (38,4%) 4 tagacha topshiriqni bajardilar, 27 tasi (12,2%) esa bitta ham topshiriqni to'g'ri bajara olmadi.

Tajriba guruhidagi 156 ta (100%) o'quvchidan esa 9 tadan 10 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 65 tani (41,6%), 5 tadan 8 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar soni 73 tani (46,7%), 4 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 14 tani (8,9%) va bitta ham topshiriqni to'g'ri bajara olmaganlar 4 ta (2,5%) o'quvchini tashkil qildi.

Pedagogika kolleji talabalarinig kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilimdonlik darajasining yakuniy natijalari

9 - jadval

Guruhlar	Talabarlar soni	JAVOBLAR			
		10 ball	6 ball	3 ball	0 ball
Nazorat	60	12	25	19	4
Tajriba	60	14	26	18	2

Guruhlar bo'yicha tajriba-sinov ishlarining boshi va yakunida nazorat guruhidagi talabalarining kommunikativ faoliyatini shakillantirishga oid bilimdonlik darajasi ko'rsatkichlari

10 - jadval

Nazorat guruhlari	talabalar soni	J A V O B L A R							
		10 ball		6 ball		3 ball		0 ball	
		Taj. bosh.	Taj. yakun	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun
105-guruh	30	5	6	9	13	10	9	6	2
113-guruh	30	5	6	9	12	10	10	6	2
Jami	60	10	12	18	25	20	19	12	4

Guruhlar bo'yicha tajriba-sinov ishlarining boshi va yakunida tajriba guruhidagi talabalarining kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilimdonlik darajasi ko'rsatkichlari

11 - jadval

Tajriba guruhlari	Talabalar soni	J A V O B L A R							
		10 ball		6 ball		3 ball		0 ball	
		Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.
106-guruh	30	5	7	10	12	12	9	3	1
107-guruh	30	5	7	10	14	12	9	3	1
Jami	60	10	14	20	26	24	14	6	2

Tajriba-sinov ishlarining boshi va yakunida pedagogika kolleji talabalarining kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilimdonlik darajasi ko'rsatkichlari

12 – jadval

Guruhlar	Talabalar soni	J A V O B L A R							
		10 ball		6 ball		3 ball		0 ball	
		Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.
Nazorat	60	10	12	18	25	20	19	12	4
Tajriba	60	10	14	20	26	24	14	6	2

Yuqoridagi jadvallarda ko'rsatib o'tilgan sonli ma'lumotlarni statistik tahlil qilamiz. Buning uchun biz x_i lar orqali nazorat hamda y_i lar orqali esa tajriba guruhlariga mos o'zlashtirish darajalarini belgilaymiz. Bu kattaliklar har biri 0; 3; 6; 10 qiymatlarni qabul qiladi. Bunday ballarga har ikki guruhlardagi o'quvchilarning sonlarini mos ravishda n_i va m_i lar orqali belgilaymiz. Natijada yuqorida 8 - jadvaldagi tajriba-sinov ishlari o'tkazilishidan oldin nazorat va tajriba guruhlaridagi kollej o'quvchilarining kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilimdonlik darajalari bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari mos ravishda quyidagicha aniqlandi:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 x_i n_i = \frac{1}{120} (0 \cdot 20 + 3 \cdot 46 + 6 \cdot 34 + 10 \cdot 20) =$$

$$= \frac{1}{120} (138 + 204 + 200) = \frac{542}{120} = 4,5 \approx 4,0.$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^4 y_i m_i = \frac{1}{120} (0 \cdot 18 + 3 \cdot 44 + 6 \cdot 38 + 10 \cdot 20) =$$

$$= \frac{1}{120} (132 + 228 + 200) = \frac{560}{120} = 4,6 \approx 5,0.$$

Demak, tajriba-sinov o'tkazilishidan oldin har ikki guruhda o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari deyarli farqlanmas ekan.

Biz olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samarador ekanligini ko'rsatish maqsadida 9-jadvaldan sonli ma'lumotlar bo'yicha matematik statistika usullari yordamida chuqur tahlil olib boramiz. Yuqoridagi belgilarni saqlagan holda biz 9-jadvalni 2 ta statistik tanlanma shaklida quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\begin{cases} X_i : 0;3;6;10. \\ n_i : 20;46;34;20. \end{cases} n = 120.$$

$$\begin{cases} Y_i : 0;3;6;10. \\ m_i : 18;44;38;20. \end{cases} m = 120.$$

Tajriba-sinov ishlari yakunida kollej talabalarida kommunikativ faoliyatni shakillantirishga oid bilimdonlik darajasi bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 x_i n_i = \frac{1}{120} (0 \cdot 19 + 3 \cdot 45 + 6 \cdot 36 + 10 \cdot 20) =$$

$$= \frac{1}{120} (135 + 216 + 200) = \frac{551}{120} = 4,5 \approx 4,0$$

$$\bar{X} \% = \frac{4,5}{10} \cdot 100 \% = 45 \%$$

$$\begin{aligned}\bar{Y} &= \frac{1}{m} \sum_{i=1}^4 y_i m_i = \frac{1}{120} (0 \cdot 6 + 3 \cdot 37 + 6 \cdot 51 + 10 \cdot 26) = \\ &= \frac{1}{120} (111 + 306 + 260) = \frac{777}{120} = 6,4.\end{aligned}$$

$$\bar{Y} \% = \frac{6,4}{10} \cdot 100 \% = 64 \%$$

Absolyut farq:

$$(\bar{Y} - \bar{X})\% = 64 - 45 = 16\%$$

Nisbiy farq:

$$\frac{\bar{Y} \%}{\bar{X} \%} = \frac{64}{45} = 1,42$$

Demak, tajriba - sinov ishlari yakunida tajriba guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhlaridagidan 16% yuqori bo'lib, u 1,4 barobar katta ekan. Ushbu ko'rsatkich tajriba-sinov ishlari boshidagidan $(6,4/4,5)=1,4$ barobarga oshganligini ko'rish mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz barobarida, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Hozirgi kun talablariga javob berish barobarida uzluksiz ta'limning o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'ziga xos yangi namunasi, tayyorgarligining uzluksiz ta'limdagi ahamiyati, shaxs barkamolligi, mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsata olishda yoshlarni kommunikativ faoliyatini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish, munosabatlarga jalb etish va tayyorlashga yo'naltirilgan ilmiy qarashlar tizimi shakillanmoqda.

Darhaqiqat, ta'lim - tarbiya jarayonida o'quvchida kommunikativ faoliyatini shakillantirishga oid bilimdonligini ta'minlashni yuqori sinflardan yoki kollejlarda emas, balki boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlash har tomonlama maqsadga muvofiqdir.

1. Kollej talabalarini kommunikativ faoliyatini shakillantirishga oid ilmiy pedagogik, psixologik adabiyotlarni o'rganish natijasida biz tadqiq etgan muammoning hali yetarlicha ishlanmaganligidan dalolat berdi.

2. Bugungi kunda ta'lim jarayonining bosh maqsadi o'quvchilarni uzluksiz rivojlantirib borgan holda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. Ijtimoiy munosabatlarga kirishning eng muhim belgisi esa muloqat madaniyatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun kommunikativ faoliyatini shakillantirish, bilimdonlikka oid ko'nikmalarni boshlang'ich sinflardan boshlab rivojlantirib borish bugungi kunda tobora ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Kollej talabalariga kommunikativ bilim berishga xizmat qilayotgan metodik qo'llanma, dastur, darsliklarning mazmunini tahlil qilish hamda shu sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ta'lim jarayoni oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani o'rganish natijasida,

kollej talabalarining kommunikativ bilimlarini ig'or pedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirishning didaktik asoslarini ishlab chiqish pedagogika fanida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo ekanligi aniqlandi.

3. Kollej talabalarining kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilim va ko'nikmalarining mavjud darajasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda ularning bu sohadagi bilimlari yetarli emas ekan. Ular ijtimoiy hayotda o'zlari duch kelayotgan iqtisodiy atamalarning mazmunini to'liq tushunib yetmayaptilar. O'quvchilarning hisob-kitob qilish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan. O'quv dasturlari va darsliklarda taqdim etilayotgan iqtisodiy bilim va tushunchalarning berilishida izchillikka amal qilinmagan. O'quvchilarning yosh xususiyatlari va ijtimoiy tajribalarining mavjud darajasi ularni o'zlashtirishga imkon bermaydi. Bularning barchasi kasb - hunar kolleji talabalari egallashi zarur bo'lgan kommunikativ faoliyatga oid bilimlar mazmunini muayyan didaktik prinsiplarga tayangan holda belgilab berish zaruriyatini qo'ydi.

3. Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz natijasida bizning ajdodlarimiz bolalarga kommunikativ muloqatlarga kirishish, kommunikativ muloqotda xulq-atvorni hamda nutq madaniyatiga oid bilimlarni yoshlikdan o'rgatib borganliklari, bu sohada katta pedagogik tajriba to'plaganliklari, ushbu merosdan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga bugungi kunda kuchli ehtiyoj tug'ilayotganligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik va merosdan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish zarurligini aniqlashga erishdik.

4. Kollej talabalarida kommunikativ faoliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limiy materiallarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ruhiy hamda fiziologik imkoniyatlari, umumiy bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi, nutqqa oid bilim va tushunchalarning kollej o'quvchilari fikrlash doirasi nutq boyligining oshishiga xizmat qilishi tadqiqot natijasida aniqlandi.

5. Kollej talabalarining kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilimlarini rivojlantirishda darsning turli shakl hamda vositalaridan foydalanish lozimligi tadqiqotlarimiz natijasida aniqlandi.

6. Yangi pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjud bo'lishi hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning maqsadini aniq belgilab olish lozimligi tadqiqot ishlari jarayonida nazariy jihatdan asoslab berildi.

7. Kollej talabalarining kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilim hamda ko'nikmalari izchil tizim asosida modulli darslar jarayonida integratsiyalashtirilgan o'quv materiallari vositasida muntazam rivojlantirib borilishi natijasida ularning kommunikativ faoliyatini va madaniyatini shakllantirishga oid bilim darajasi o'sadi, buni amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari yaqqol ko'rsatdi.

8. Amalga oshirilgan statistik tahlillar tadqiqotning ilmiy farazi to'g'riligini tasdiqlash imkonini berdi.

**Biz amalga oshirilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi tavsiyalarni
bayon qilamiz:**

1. Pedagogika kolleji guruhlarida o'tkaziladigan har bir darsda ommaviy axborot vositalarida qo'llanilayotgan ma'ruzalar natijasida talabalarning nutq boyligini oshirib borishga erishish.

2. Turli o'quv predmetlari mazmuniga jamiyatning barcha sohalariga oid yangi atamalarni kiritgan holda darsliklarda integrallashgan o'quv materiallarini berish.

3. O'quvchilarni kommunikativ muloqotga o'rgatish maqsadida turli o'yin darslarini tashkil etish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish.

4. Kommunikativ faoliyatni rivojlantirish maqsadida talabalarga turli albomlar, bukletlar, ko'rgazmali vositalardan keng foydalanib dars o'tish.

5. O'tilgan materialni mustahkamlash hamda darsda olgan kommunikativ faoliyatini shakllantirishga oid bilim va ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida bayram tadbirlariga qatnashish, darslik va kitob ustida ishlash, matbuot va axborot

vositalaridan keng foydalanish, xalqimizning boy ma'naviy merosi hisoblangan xalq og'zaki ijodiga murojaat etish.

6. Kollej talabalarining kommunikativ faoliyatiga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishni umumiy o'rta maxsus kasb-hunar bilim yurtlarida yanada ommalashtirish maqsadida, tadqiqot natijalarini yangi yaratilayotgan dastur va darsliklariga singdirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yukasak ma'naviyat-engilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2010-173.b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997-46 b.
3. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va havfsizligi o'z kuch - qudratimizga, halqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq-T.: O'zbekiston. 2004.-32 b.
4. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси.Т.:Ш. 1999-182 б.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.T.: 1997-55 b.
6. Tarbiya jurnali 2-son.T.: 2011-36 b.
7. H.Yusupov,Sh.Eshpo'latov.Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik mahoratni shakllantirish.(uslubiy qo'llanma).S.:SamDU.2008-65 b.
8. Беспалко.В.П.Слагайемй педогогической технологии.М.: Педагогика. 1989.
9. G'oziyev E.G'.,To'laganov G. Pedagogik psixologiya asoslari. T.: U.1997
10. Shodiyev N.Sh. va boshqalar. Talabalarga kasb tanlashni o'rgatish.-T.:O'qituvchi.1987-282 b.
11. Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.:O'-2009-396 b.
12. Shodiyev N.Sh. Yangi pedagogic texnologiyalar.Uslubiy qo'llanma. S.: SamDU.-2005-122 b.
13. A. Munavvarov. Pedagogika. Toshkent.: O'qituvchi.1996.-199 b.
14. Tarbiya jurnali.-2011.-2-son.
15. Rasulova Y., Nurmatova O. Pedagogika. T.: V. 2009-284 b.
16. Uzluksiz ta'lim tizimiga bo'lajak mutaxasislarning pedagogik kommunikativ faoliyatini shakllantirish muommalari. S.: SamDU. 2001-56 b.

17. Хошимов К., Софо Очил Ўзбек педагогикаси антологияси. Т.: Ў. 1995-460 б.
18. Каримова В. Психология. Т.: Х. 2002-201 б.
19. Узликсиз таълим тизмида бўлажак мутахассисларнинг педагогик-коммуникатив фаолиятини шакиллантириш муаммолари. Республика илмий назарий конференцияси материаллари. I қисм. С.: 2001-127 б.
20. Дейл Карнеги. Қандай қилиб дўст орттириш ва одамларга таъсир кўсатиш мумкин. Н.: Н. 2007-16 б.
21. Сулайманов М. Психологик хизмат ва маслаҳат. С.: СамДУ. 2006-43 б.
22. Yo'ldoshev J.G'. Ilg'or pedagogik texnologiya amalda. N.: 2003
23. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiya asoslari. T.: 2004.
24. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya (o'quv qo'llanma). T.: ToshDPU. 2002.
25. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.
26. Karimova V. Akramova F. Psixologiya. T.: 2000.
27. Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma). T.: 2000.
28. G'oziyev E. G'. Muomala psixologiyasi. T.: 2001.
29. G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T.: O'. 1994-312 b.
30. G'oziyev E. Psixologiya (darslik). T.: O'. 2003.
31. Maxsudova M. Umumiy psixologiya (ma'ruzalar matni). N.: 2002.
32. Maxsudova M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. (uslubiy qo'llanma) N. 2003.
33. Yo'doshev J.G'. Ilg'or pedagogik texnologiya. T.: F. 2004.
34. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi (muammoli ma'ruzalar matni). N. 2004.
35. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Т.: 2002.
36. Ғозиев Э.Ғ. Тошимов Р. Менежмент психологияси. Т.: 2001

37. G'oziyev E.G', To'laganova G. Pedagogik psixologiya asoslasri.T.: U.1997.
38. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: M. 2003.
39. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса.-М.: Просвещение.1982-193с.
40. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Q.: N. 2000-80 b.
41. Munavvarov A.K. Pedagogika o'quv qo'llanma.T.: O'. 1996-201 b.
42. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev R. Pedagogika darslik. Toshkent.: O'qituvchi. 2001.- 510 b.

Mavzu yuzasidan internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar ro'yhati:

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psychology.all.ru
3. www.psychology.net.ru
4. www.psy.piter.com

ILOVA

Kollej talabalarida kommunikativ faoliyatini aniqlash

Testi

Hurmatli talabalar ushbu savollarga mustaqil holda (bir-biringizdan ko'chirmasdan) javob berishingizni so'raymiz.

1. O'qituvchi nutqi qanday bo'lishi kerak
 - a) sodda
 - b) ravon
 - c) Tushunarli
 - d) Barcha javoblar to'g'ri.

2. Nutqni o'stirish vositalariga nimalar kirabi
 - a) tez aytish
 - b) she'r aytish
 - c) kitob o'qish
 - d) barcha javoblar to'g'ri

3. Nutq necha turga bo'linadi.
 - a) Ichki nutq,tashqi nutq
 - b) og'zaki nutq, yozma nutq, monologik nutq
 - c) Ichki nutq, og'zaki nutq, yozma nutq
 - d) Tashqi nutq, yozma nutq

- 4.Monologik nutq bu...
 - a) ikki kishi o`rasidagi nutq
 - b) bir necha kishi o`rtasidagi nutq
 - c) bir kishinig tomonidan so`zlanadigan nutq
 - d) to`g`ri javob yo`q

5. Og'zaki nutq necha turga bo'linadi.
 - a) monologik, dialogic
 - b) dialogic, ichki nutq
 - c) monologik, ichki nutq
 - d) to'g'ri javob yo'q.

6. Diologik nutq bu... .

- a) bir kishining nutqi
- b) ichki nutq yig'indisi
- c) ikki yoki undan ortiq kishining nutqi
- d) to'g'ri javob yo'q.

7. Nutq nima ?

- a) kishilar o'rtasidagi muloqot
- b) muomilaning eng kichik birligi
- c) muomila vositasi
- d) barcha javob to'g'ri

8. Chiroyli so'zlovchi kishilar qanday ataladi?

- a) suxandonlar
- b) aratorlar
- c) boshlovchilar
- d) a va c javob to'g'ri.

9. Notiqlik maktabi qayerda rivojlangan?

- a) Xorazmda
- b) Rimda
- c) Buxoroda
- d) Afinada

10. Quyidagi javoblardan mashhur notiqni ko'rsating.

- a) Sitsiron
- b) Farobiy
- c) Aristotel
- d) Beruniy

Kollej talabalarining nutqini o'stirishni aniqlash so'rovnomasi.
(Kollej o'quvchilari uchun)

Hurmatli talaba ! Ushbu anketa ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti.
Savollarni diqqat bilan o'rganib mustaqil holda javob yozishingizni so'raymiz.

1. Sizningcha o'quvchilar nutqini o'stirish uchun nima qilish kerak, fikringizni yozing.

2. Qaysi fan o'qituvchisining nutqi siz uchun tushunarli.

3. Hozirgi kunda o'quvchilar o'rtasida muloqot madaniyatini takomillashtirishning qanday yo'llari bor.

4. Siz nutqingizni o'stirish uchun qanday yo'l tutasiz.

5. O'z ortog'ingizning muloqot madaniyatiga fikr bildiring.

6. O'zingizning nutq madaniyatingizdan qoniqasizmi?

7. Nutq madaniyati tushunchasini izohlab bering.

8. Til va nutq deganda nimani tushunasiz?

9. Muloqotning yoshlar tarbiyasida ahamiyati.

10. Hozirgi kunda internetning nutq faoliyatiga ta'siri qanday?
